

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI
VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO‘JALIK INSTITUTI**

Veterinariya fakulteti

5440100 - «Veterinariya» ta’lim yo‘nalishi

Qilichov Oxunjon Erkinovichning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: «Sigirlarda bachodonni yallig‘lanishini davolashni “Butasol-100”
preparatini qo‘llash bilan takomillashtirish»**

Ilmiy rahbar, Assistent _____ B.Nurmuxameddov

**Veterinariya fakulteti dekani,
v.b., dotsent _____ N.O.Farmonov
«_____» _____ 2016 yil**

**Hayvonlarning yuqumsiz
kasalliklari, akusherlik va
ginekologiya kafedra mudiri,
dotsent _____ B.M.Eshburiev
«_____» _____ 2016 yil**

SAMARQAND – 2016

M U N D A R I J A

I	KIRISH	3
I.1	Mavzuning dolzarbligi	9
I.2	Mavzuning maqsadi va vazifalar	10
II	ADABIYOTLAR SHARHI	11
II.1	Sigirlarda metritlarning turlari va ularning tarqalish	11
II.2	Sigirlarda bachadon kasalliklarining sabablari, diagnostikasi	24
II.3	Sigirlarda bachadon kasalliklari davolash usullari	31
III	XUSUSIY TADQIQOTLAR	42
III.1	Xo‘jalikning iqtisodiy tavsifi	42
III.2	Tadqiqotlar ob’ekti va uslublari	45
III.3	Sigirlarni parvarishlash va oziqlantirishning tahlili	46
III.4	Klinik va gematologik tekshirish natijalari	49
III.5	Sigirlarda bachadon kasalliklarini davolash usullari tajribalarining natijalari	52
III.6	Ishning iqtisodiy samaradorligi	58
IV.	VETERINARIYA ISHINI TASHKILLASHTIRISH VA IQTISODI	60
V.	HAYOT FAOLIYATI HAVFSIZLIGI	88
VI.	FUQAROLAR MUDOFAASI	89
VII	XULOSALAR	91
VIII	ISHLAB CHIQARISHGA AMALIY TAVSIYALAR	92
IX.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI	92

K I R I S H

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasida ta‘kidlaganidek , o‘tgan 2015 yil bizning bosh maqsadimiz bo‘lmish asosiy vazifa – odamlarimizning munosib hayot darajasi va sifatini ta‘minlash va rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan o‘rin egallash bo‘yicha avvalo muhim islohotlarni amalga oshirish yo‘lida katta qadam bo‘ldi, deb aytishga to‘liq asoslarimiz bor. Bu borada gap, avvalo, har tomonlama puxta o‘ylangan, uzoqni ko‘zlaydigan keng ko‘lamli Dasturni hayotga joriy etish haqida bormoqda. Ushbu Dastur mohiyat e‘tibori bilan chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik manfaatlarini ishonchli himoya qilish, eng muhimi, Konstitutsiyamizda ko‘zda tutilganidek, xususiy mulkning qonuniy, me‘yoriy-huquqiy va amaliy jihatdan ustuvor rolini ta‘minlash, O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgani sizlarga yaxshi ma‘lum, albatta. Ta‘kidlash joizki, taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida faqat uglevodorod xomashyosi, qimmatbaho va rangli metallar, uran xomashyosini qazib oladigan va qayta ishlaydigan korxonalarni, shuningdek, tabiiy monopoliyalarning strategik infratuzilma tarmoqlarini – temir va avtomobil yo‘llari, aviatashuvlar, elektr energiya ishlab chiqarish, elektr va kommunal tarmoqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat boshqaruvida saqlab qolish maqsadga muvofiq, deb topildi. Davlat aktivlarini xususiylashtirish, avvalo, chet ellik investorlarga sotish vazifalari qo‘yildi va buning uchun tegishli sharoitlar yaratildi. Masalan, 506 ta mulk kompleksi tanlov asosida, investitsiya kiritish sharti bilan «nol» qiymatida yangi mulkdorlarga sotildi. Bu borada ana shu investorlar qariyb 1 trillion so‘m va 40 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritish, shuningdek, 22 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratish majburiyatini olganini qayd etish lozim. SHu bilan birga, 245 ta kam rentabelli va faoliyat ko‘rsatmayotgan

tashkilot to'liq tugatildi. Xususiylashtirish dasturida ko'zda tutilgan, foydalanilmayotgan va qurilishi tugallanmagan 353 ta davlat mulki ob'ekti buzilib, buning natijasida 120 gektar hajmidagi er maydoni bo'shadi. Bu erlarning qariyb 80 gektari ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish va xizmatlar ko'rsatish ob'ektlari qurish uchun tadbirkorlar tasarrufiga berildi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ham chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli o'tgan yili mo'l hosil etishtirildi – 7 million 500 ming tonnadan ziyod g'alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi.

Ta'kidlash kerakki, bunday mo'l hosil asosan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish, seleksiya ishlarini yaxshilash, g'o'za va boshqli don ekinlarining rayonlashtirilgan navlarini joriy qilish, zamonaviy agrotexnologiyalarni o'zlashtirish evaziga ta'minlandi. Mamlakatimizda bug'doydan gektaridan o'rtacha 55 sentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko'rsatkich 60-77 sentnerni tashkil etgani, hech shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug'idir. u bilan birga, qishloq xo'jaligining meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur'atlarda rivojlandi. O'tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva etishtirildi. Qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, etishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan yili qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxona, 77 ming 800 tonna sig'imga ega bo'lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi. Mamlakatimizda meva-sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga etkazildi. Bu esa, yil davomida narxlarning mavsumiy keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholini asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, ushbu

mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda.

Bularning barchasi fidoyi dehqon va fermerlarimiz, barcha qishloq xo'jaligi xodimlarining mashaqqatli va sharaflı mehnati mahsulidir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Fursatdan foydalanib, bugun, mana shu yuksak minbardan turib, barcha qishloq mehnatkashlariga yana bir bor chin qalbimdan samimiy minnatdorlik izhor etishni o'zimning burchim deb bilaman.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdagi PQ-308-son "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga chetdan qoramollar zooveterinariya, asbob uskunalari olib kelish uchun tegishli imtiyozlar berishga hamda chorvachilik sohasidagi mavjud muammolar hal qilib berilganiga qaramasdan bugungi kunda tashkil qilingan zooveterinariya punkitlarining va chorva mollarini suniy qochirish punkitlarining 62 foizi to'liq jihozlanmagan, ular uchun zarur asbob uskunalari olib kelish uchun Ishtihon, Toyloq tumanlarida qoniqarsiz tashkil yetilgan chorva mollarini sun'iy qochirish bo'yicha tuzilgan shartnomalar viloyatda 20% bajarilgan xolos. Shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga qoramol sotib olish uni joriy yilda mikro kreditlar berish ishlari Bulung'ur, Samarqand, Urgut tumanlarida yaxshilashgan. Viloyat tumanlarida chorva mollari uchun oziqa yekinlari yetishtirish dag'al hashak jamg'arish ishlarida aniq rejalashtirilmasdan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklariga don korxonalari tomonidan tashkil yetilgan shaxobchalar orqali omixta yem sotish ishlari Ishtihon, Narpay tumanlarida qoniqarsiz ahvolda.

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida:

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hamda mustahkamlash birinchi navbatda qoramol boqish va yetishtirish, shu asosda qishloq aholisining bandlik darajasini ko'tarish va oilalar daromadini oshirishning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanish.

Respublika xalq xo'jaligining barcha sohalarida shu jumladan, qishloq xo'jaligi va uning ajralmas qismi hisoblangan chorvachilikda o'tkazilayotgan islohatlar o'zini ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Bunga misol qilib chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida yetishtirilayotganligini keltirish mumkin. Binobarin yangi tashkil yetilgan fermer xo'jaliklari ilmiy va ommaviy tavsiyalar bilan ta'minlash, ularni rentabillik ho'jaliklariga aylantirish sohani istiqbolini belgilaydi. Chunki keyingi besh yilda chiqarilgan farmonva qarorlar aynan shu maqsadlarga qaratilgan.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-apreldagi "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirishni yanada kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-842- qarori chorvachilikni bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirish borasida katta imkoniyat yaratdi.

Sohaga oid ye'lon qilingan barcha farmon va qarorlar respublikamizda xo'jalik toifasidan qat'iy nazar chorvachilik bilan shug'ullanuvchilarning daromadini oshirish va ichki bozorni yetarli miqdorda sifatli maxsulotlar bilan to'ldirishni ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek chorvador uchun qulay shart sharoitlar yaratib, ularga qo'yidagi imkoniyat va imtiyozlarni berdi.

-qonunchilikda shaxsiy yordamchi va fermer xo'jaliklarda qoramol parvarishlash bilan shug'ullanadigan shaxslar ish bilan band axoli toifasiga kirishi, ularga mexnat daftarchasi berishni va ish staji hisobga olishi, nafaqa yoshiga yetganda nafaqa olishi xuquqiga ega bo'lish;

-chorvachilikka ixtisoslashgan fermer va boshqa xo'jaliklar hamda parrandachilik korxonalariga ajratilgan sug'oriladigan yerlar faqat yem hashak yekinlari uchun paxta yekishda foydalanmaslik;

-omixta yem, shrot, shuluxa, kepak va boshqa ozuqa turlari xarid qilish mumkin bo'lgan oziqa sotish bo'yicha yagona ixtisoslashgan shaxobchalarni tashkil yetish;

-zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish tuzilishini tanada yaxshilash, veterinariya laboratoriyalari va veterinariya punktlari zamonaviy uskunalar va inventarlar bilan jihozlash, ularni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash.

Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan 2016 yil "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilindi va shu munosabat bilan "Sog'lom ona va bola yili" davlat dasturi ishlab chiqildi :

Halqimizning asriy an'analarini hisobga olib, "Ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustaxkam bo'ladi" degan xayotbaxsh qadriyat va olijanob g'oya jamiyatda chuqurroq anglab etilishiga va qaror topishiga yunaltirilgan keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish buyicha olib borilayotgan ishlarning darajasini yanada yuksaltirish, oilani, onalik va bolalikni muxofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatda onalarga aloxida xurmat-extirom muxitini shakllantirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, oilaning mustaxkam, sog'lom va axil bo'lishida maxalliy davlat xokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining xamkorligini kuchaytirish maksadida, shuningdek 2016 yil O'zbekiston Respublikasida "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon kilinganligi munosabati bilan:

"Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturi loyixasini ishlab chikishda, Sog'lom va barkamol avlodni shakllantirish, xotin-kizlarning turmush sharoiti va darajasini xar tomonlama yaxshilash yuzasidan olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarni yanada mantiqiy davom ettirish maksadida, quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishga aloxida e'tibor qaratilsin:

- oilani, onalik va bolalikni muxofaza qilish, ayollar manfaatlarini ximoya qilish, sog'lom bolani tarbiyalashda ularning rolini oshirish, kuchli, barkaror va ravnak topayotgan davlatning negizi sifatida oila institutini mustaxkamlashga yunaltirilgan konunchilik va normativ-xukukiy bazani yanada takomillashtirish;

- olis va chekka qishloq tumanlarida yashayotgan axoli, ayniqsa ayollar uchun zarur ijtimoiy, maishiy va tibbiy nuqtai nazardan zarur sharoitlar yaratish, qishloq joylarda namunaviy loyixalar asosidagi zamonaviy uy-joylar, ijtimoiy

infratuzilma ob'ektlarini barpo etish, qishloq axolisini toza ichimlik suv, tabiiy gaz bilan ta'minlash, xizmatlar ko'rsatish va servis darajasini yuksaltirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish;

- tibbiyot muassasalarining, jumladan perinatal va skrining markazlar- ning moddiy-texnika bazasini va kadrlar saloxiyatini yanada mustaxkamlash, oilaviy poliklinikalar va kishlok vrachlik punktlarining ish samaradorligini oshirish, patronaj tibbiyot xamshiralarining sonini kupaytirishni ta'minlash, akusher-ginekologlar va bolalar shifokorlari malakasini oshirish;

- nikoxga kirayotgan shaxslarning nikoxdan oldin to'liq tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlash uchun tibbiyot xodimlarining mas'uliyatini kuchaytirish, shu asosda tug'ma va irsiy kasalliklar sonini kamaytirish xamda ushbu maqsadlarda poliklinikalarni zamonaviy tashxis uskunalari bilan jixozlash, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, mustaxkam oila kurish va sog'lom farzand tug'ilishi uchun nikoxdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tishning muximligini axoli keng qatlamlari ongiga singdirgan holda katta tushuntirish ishlarini olib borish;

- aholining tibbiy madaniyatini oshirish, sanitariya va gigiena, xomilador ayollarning sog'ligini saklash va psixofiziologik ahvolini yaxshilash, yosh onalar va bolalarni tegishli tarzda parvarish qilish soxasidagi ishlarni kuchaytirish, ularning ovkatlanish ratsioni sifati va kaloriyasi yaxshilanishini ta'minlash;

- yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish, yoshlarni, ayniksa kishlok joylarda qizlarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, yangi sport ob'ektlarini qurish, ishlab turganlarining moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash, ularni zamonaviy sport uskunalari va anjomlari bilan jixozlash, yukori malakali trener kadrlar va murabbiylar bilan ta'minlash;

- mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muxim sharti sifatida oilalarda sog'lom ma'naviy muxitni, xususan, o'zaro xurmat-extirom, er-xotin o'rtasida, ota-onalar bilan farzandlar, qaynona-kekin o'rtasida, qo'ni-qo'shnilar o'rtasida mexr-oqibat ru- hini yaratish;

- qiz bolalarni, bulajak onalarni, jismonan sog'lom va intellektual

rivojlangan tarzda shakllantirish, ularning akademik litseylar va kasb-xunar kollejlarda albatta ta'lim olishini, zamonaviy bilimlar va kasb-xunarlarga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularning xayotda munosib o'rinni egallashlarida, kelajakda sog'lom va mustaxkam oila qo'rishlarida asosiy shart hisoblanmish mustaxkam xayotiy pozitsiyani va mustaqil fikrlashni shakllantirish;

-sog'lom bolani shakllantirishda ta'lim tizimining rolini kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini yanada rivojlantirish, boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlab, ilg'or pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etgan xolda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish tadbirlarini amalga oshirish;

-kasb-xunar kollejlari bitiruvchilarining, avvalo qizlarning ish bilan bandligini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, o'z biznesini yulga quyish ishtiyokidagi yoshlarga imtiyozli kreditlar, yosh oilalarga uy-joy sotib olish va qo'rish uchun ipoteka kreditlari, uzok muddat foydalaniladigan tovarlar xarid qilish uchun iste'mol kreditlari ajratish ishlarini yanada kengaytirish;

-ommaviy axborot vositalari, shu jumladan elektron axborot vositalarining va Internet tarmog'ining imkoniyatlaridan faol foydalangan xolda "Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturining maqsadlari va vazifalari hamda Dasturning amalga oshirilishi tug'risida keng axborot-tushuntirish ishlarini tashkil etish.

Mavzuning dolzarbligi. Sigirlarning bachadon yallig'lanishi (metritlar), kasalliklari qoramolchilik fermer xo'jaliklarida keng tarqalgan bo'lib, hayvonlar bosh sonini ko'paytirish, ularning zotini yaxshilash va mahsuldorligini oshirish muammolarini samarali hal etishga katta to'sqinlik qilishi bilan bir qatorda sigirlarning bepusht qolishi, kasallikni davolash va oldini olish xarajatlarining ortishi hisobidan katta iqtisodiy zarar keltiradi.

Adabiyot ma'lumotlarining tahliliga ko'ra Respublikamizning qoramolchilik fermer xo'jaliklarida sigirlar orasida ginekologik kasalliklar oqibatidagi

bepushtliklarning keng tarqalganligiga qaramasdan, bu kasallikning sabablari, chorvachilikni yuritishning o'zgarishi bilan bog'liqligi, barvaqt diagnostika qilish, davolash va guruh usulida profilaktika qilish chora-tadbirlari to'liq ishlab chiqilmagan.

Sigirlarda bachadonning yallig'lanishi kasalliklari oqibatida hayvonlar mahsuldorligining keskin pasayishi, ular reproduktiv xususiyatlarining pasayishi, qisir qolishi hamda nimjon va hayotchanligi past bo'lgan bola tug'ilishi hisobiga fermer xo'jaliklari katta iqtisodiy zarar ko'rmoqda.

Ishning maqsad va vazifalari. Ishning maqsadi Respublikamizning chorvachilik fermer xo'jaliklari sharoitida sigirlarda metritlarning etiologiyasi va unda hayvonlarni saqlash sharoitlari va alimentar omillarning ahamiyati, kasalliklarning kechish xususiyatlarini o'rganish, shu asosda kasallikni ertachi aniqlash va samarali davolash usullari hamda oldini olish tadbirlari ishlab chiqishdan iborat.

Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Qoramolchilik fermer xo'jaliklari sharoitida sigirlar orasida metritlarning tarqalishi, asosiy turlari hamda ularning xo'jaliklarga keltiradigan iqtisodiy zararini o'rganish;
- sigirlarda metritlarning rivojlanish xususiyatlari, ertachi aniqlash, kasalliklarning simptom va sindromlari, qondagi morfobiokimyoviy o'zgarishlarni o'rganish;
- sigirlarda metritlarning davolash usullarini takomillashtirish va oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

2.ADABIYOT MA'LUMOTLARINING TAHLIL

2.1. Sigirlarda metritlarning turlari va ularning tarqalish

Markelov, Oleg Vladimirovich (2003) ma'lumotlariga ko'ra Ulyanovskoy oblasti fermer xo'jaliklarida sigirlarning akusher ginekologik kasalliklari keng tarqalgan bo'lib, tug'ruqdan keyingi endometrit 40,1 %, tuxumdonlarning kasalliklari 27,5 %, yo'ldoshning ushlanib qolishi 19.3 %, tug'ruq va to'g'ruqdan keyingi patologiyalar esa 13,1 % ni tashkil etadi.

I.S.Koba (2009) ma'lumotlariga ko'ra, Krasnodar o'lkasida sigirlarning o'tkir endometritlari keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lib, tuqqan sigirlarning o'rtacha 46,0% ida qayd etiladi. Yangi tuqqan sigirlarda bachadonning yallig'lanishlarining turlari quyidagicha uchraydi: kataral endometrit - 20,9%; kataral-yiringli - 60,0%; fibrinoz endometrit - 12,1%; nekrotik endometritlar -6,9% sigirlarda qayd etilgan.

Sigirlarning o'tkir endometritlari yilning fasllari bo'yicha o'rganilganda qish-erta bohor fasllarida 67,3%, yoz faslida esa 21,9% sigirlarda qayd etilgan. Oqibatda sigirlarning otalanishi o'rtacha 47 kunga kechikkan, otalanish indeksining 1,2 martaga ko'payishi kuzatilgan.

Kasallangan sigirlarda tuqqandan keyin otalanish muddati o'rtacha 156 kunni tashkil etib, sog'lom sigirlarga nisbatan 87 kunga ko'p bo'lgan.

Safiullov R.N. (2009) ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyaning Ulyanovskiy oblastida sigirlar orasida ginekologik kasalliklardan to'qqandan keyingi endometrit 36,71 %, tuxumdonlar kasalliklari – 25,54% sigirlarda, patologik va asoratli tug'ishlar – 19,33 %, abortlar – 1,2 % hollarda qayd etiladi.

Fermer xo'jaliklari sharoitida sigirlarning metritlar, tug'ruqdan keyingi falaj, yo'ldoshni ushlanib qolishi, bachadonni chiqishi, tug'ishdan keyingi infeksiyalar kabi kasalliklari keng tarqalgan bo'lib, katta iqtisodiy zararga sabab bo'lmoqda:

1. O'tkir endometrit. Bachadon shilliq pardasining yallig'lanishi bo'lib, hamma turdagi hayvonlar uchraydi va hayoti davomida yuzaga keladigan

bepushtlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Y Allig‘lanish mahsulotlarning ta’sirida jinsiy hujayralar nobud bo‘ladi yoki zigota fagositozga uchraydi.

Bachadon shilliq pardasining yallig‘lanishi natijasida tuxumdonlar ko‘pincha ikkilamchi tartibda shikastlanadi (sariq tana turib qoladi, follikulalar yorilmaydi, yallig‘lanishga uchraydi va h.k.) va follikullarning yetilishi izdan chiqadi.

O‘tkir endometrit giperemiya va bachadon shilliq pardasining shishi bilan kechadi. Giperemiyaning zo‘rayishi bilan tomirlarning ekstravazasiyasi, ya’ni qon zardobi va hatto, shaklli elementlarining tomirlar devori orqali bachadon hujayralari orasidagi bo‘shliqqa sizib chiqishi kuzatiladi.

2. Surunkali endometrit. Bu kasallik, odatda, o‘tkir endometrit oqibatida kelib chiqadi va endoteliyning kuchli o‘zgarishi hamda bachadon bezlarining kuchli sekresiyasi bilan kechadi. Eksudatning xarakteriga ko‘ra, kataral, yiringli-kataral va yiringli surunkali endometritlar farqlanadi.

Surunkali endometritlarda, ba’zan bachadon bo‘ynining juda shishib ketishi tufayli eksudat bachadon bo‘shlig‘ida to‘planib qoladi. Eksudat suvga o‘xshagan suyuq bo‘lsa (kataral eksudat) bachadon istisqosi (Hydrometria) deb ataladi. Bachadonda ko‘p miqdorda yiringli eksudat to‘planganda piometra (Piometria) vujudga keladi. Yashirin o‘tadigan surunkali endometrit surunkali kataral endometritning bir turidir. Studensov A.P., SHipilov V.S., Nikitin V.YA (2000).

3. Yashirin surunkali endometrit. Kasal sigirlarda kuyikishlar orasidagi davrda klinik belgilar sezilmaydi va to‘g‘ri ichak orqali hamda qin orqali tekshirishda ham normadan tashqari o‘zgarishlarni topib bo‘lmaydi. Hayvon kuyikkan paytida esa bachadondan odatdagidan ko‘ra ko‘proq loyqalangan, ba’zan yiringli eksudat aralashgan suyuqlik chiqadi.

Urg‘ochi hayvonlar muntazam kuyukib, urug‘lantirilib turilsada, bo‘g‘oz bo‘lmaydi. SHu xilda o‘tadigan endometritda hayvonlarning qisir qolishi jinsiy yo‘llarida spermatozoidlarning harakatiga to‘sqinlik qiladigan shilimshiqning haddan tashqari ko‘p bo‘lishi hamda bachadondagi eksudatining spermatozoidlarga o‘ldiruvchi ta’sir etishi sababli kuzatiladi.

4. Surunkali kataral endometrit paytida bachadon shilliq pardasi chuqur o'zgarishlarga uchraydi. SHilliq parda yumshoqlashib, qalinlashadi, unda biriktiruvchi to'qima o'sadi, shilliq parda yuzasida esa eroziyalar paydo bo'ladi. Ba'zi joylarda bachadon bezlaridan tovuq tuxumidek keladigan kistalar vujudga keladi.

Kasallangan sigirlarda ko'p miqdorda va biyalarda juda oz tiniq suyuqlik oqadi, bu suyuqlik biroz ochiq turgan kanal orqali bachadondan qinga, keyin esa tashqariga ham oqib tushadi. Hayvon muntazam kuyikib turadi yoki kuyikish vaqti o'zgaradi.

Ko'pchilik mualliflar ([Wwww.gogle.ru](http://www.google.ru) Varganov A.I., CHuprakov V.G., Sozinov V.A.) yiringli endometritlarni davolashda tarkibi furazolidon, limon kislotasi, jelatinagliserinli asosli «furazolidonli tayoqcha (suppozitoriy)»dan foydalanishni tavsiya etadi. Preparat tarkibiga limon kislotasi furazolidonni faollashtirish maqsadida qo'shiladi.

Pankov Boris Grigorevich (2003) ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya Federatsiyasining 15 dan ortiq viloyatlarida sigirlar orasida yo'ldoshni ushlanib qolishi 8,5%, klinik endometritlar 9,7 % ni tashkil etib, hayvonlarni oziqlantirish sharoitlari yomonlashganda va samaradorligi past davolash usullari qo'llanilganda bu patologiyalar 70 – 80 foizga yetishi mumkin.

5. Surunkali yiringli-kataral endometritda ham surunkali kataral endometritdagi belgilar xarakterlidir, biroq bachadondagi o'zgarishlar ancha keskin ifodalangan bo'ladi. Bu hol yiring hosil qiluvchi mikroorganizmlarning faoliyatiga bog'liq. Kasallangan sigirlar jinsiy lablar tekshirilganda ko'tarilib turganligi va jinsiy yoriq pastki burchakning junlarda jigarrang-sariq yiring qotmalari topiladi. Dumning ichki yuzasi ham ko'pincha shunday qotmalar bilan qoplangan bo'ladi. Jinsiy teshikdan yiring aralash shilimshiq keladi.

Kasal hayvonlarning umumiy ahvoli qoniqarli bo'lsada, hayvon holsizlanib, ozib ketadi, ishtahasi kamayadi, tana harorati ko'tariladi.

6. Surunkali yiringli endometrit ko‘pincha sigirlarda va ba‘zan boshqa hayvonlarda uchraydi. Surunkali yiringli endometritning uch shakli farqlanadi.

Birinchi shakli «oqma» deb ataladi va bachadon bo‘yni kanali ochiq turganligi sababli doimo yiringli eksudat chiqib turadi. Kasallikning bu turi bachadon involyusiyasining sekinlashishi tufayli kelib chiqadi.

Ikkinchi turida jinsiy yo‘llardan vaqti-vaqti bilan yiringli ekssudat kelib turadi. Bunga bachadon shilliq pardasining shishib ketishi va bo‘yni kanalining vaqtincha bekilib qolishi va bachadon devori muskullari tonusining pasayishi sabab bo‘ladi. Yiringli ekssudat bachadon bo‘shlig‘ida to‘planib boradi va hayvon tanasining vaziyatini o‘zgartirganidagina (masalan yotganda) qin orqali oqib chiqadi.

Uchinchi shaklida bachadon bo‘yni kanali zich bekilib turgani uchun yiringli ekssudat bachadondan tashqariga oqib chiqmaydi. Endometritning bu turi hayvonda trixomonoz yoki homilani rivojlanishining ilk davrida o‘lib qolishi paytlarda vujudga keladi.

Yiringli endometritning piometra deb ataladigan ikki shakli tug‘ish vaqtida bachadon bo‘yni kanalining shikastlanib, keyin bitib ketishi natijasida, hayvon qarib, bachadon devori muskullarining atrofiyaga uchrashi yoki o‘smalar vujudga kelishi tufayli va ba‘zan ikkilamchi kasallik tarzida yuzaga keladi (SH.B.Ata-Kurbanov, B.M.Eshburiev, 2010).

7. Parametrit (Parametritis). Parametrit deyilganda qin atrofidagi tos klechatkasi bilan bachadon tutqichlarining yallig‘lanishi tushuniladi.

Parametrit odatda bachadonning o‘tkir yallig‘lanishi natijasida, ba‘zan yallig‘lanishning ichak va qorin pardasidan o‘tishi natijasida vujudga keladi. Mikroorganizmlar bachadondan asosan qon va limfa yo‘llari orqali atrof to‘qimalarga o‘tadi. Ko‘pincha abscesslar paydo bo‘ladi.

Kasal hayvonda tana haroratining ko‘tarilishi, hayvonning bukchayib turishi, tez-tez kuchanish, defekasiya va siydik ajratish vaqtida og‘riq sezish kuzatiladi. To‘g‘ri ichak va qin orqali tekshirishda hayvon juda bezovtalanadi, bachadonning

shikastlangan devorlari va tutqichlari qo'lga qalin tortgan va shishgan bo'lib seziladi, ba'zan abscesslar topiladi.

Bepushtliklarga vaqtida diagnoz qo'yish, hayvon uchun optimal sharoit yaratish va davolash tartibini belgilash hamda samarali davolashni tashkil etish shifokor faoliyatidagi eng muhim vazifalardan biridir. Bepushtliklarga diagnoz qo'yishning bir qancha usullari mavjud.

Ginekologik tekshirish usullari. Ginekologik tekshirish kasal hayvon to'g'risidagi anamnez ma'lumotlari va klinik tekshirish natijalaridan tashkil topadi.

Anamnez - hayvon to'g'risidagi anamnez ma'lumotlarini to'plashda nima uchun veterinariya yordami kerak bo'lganligieyingi tug'ishning vaqti va xarakteri, hayvonning kuyikishi va uning kechish jadalligi, necha marta va qachon urg'ulantirilganligi, kechirgan kasalliklari, oziqlantirish va parvarishlash sharoitlari aniqlanadi.

Urg'ochi hayvonlarning qisirligi ko'pincha erkak hayvonlarga aloqador bo'lganligi uchun podadagi erkak hayvonlarning soni, ularning umumiy ahvoli va xo'jalikda yuqumli kasalliklar bor-yo'qligiga e'tibor beriladi.

Bundan tashqari, hayvonda siydik ajratish va tezaklash holati, martasini aniqlash kerak. Hayvonning tez-tez siydik va tezak ajratib turishi tos a'zolarida yallig'lanish jarayonlari borligidan darak beradi (qovuq, qin, to'g'ri ichak va boshqalarda).

Klinik tekshirishlar - patologik jarayonlar organizmda ayrim a'zolar funksiyasining buzilishi va strukturasining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Klinik tekshirishlar bilan a'zolarida aniqlangan funksional va morfologik o'zgarishlarga kasallik simptomlari (belgilar) deb ataladi. Studensov A.P., SHipilov V.S., Nikitin V.YA (2000).

Kasallik belgilariga baho berishda hayvonlarning yoshi, bo'g'ozlik va boshqa fiziologik holatiga aloqador ba'zi funksional o'zgarishlar sog'lom hayvonlarda ham uchrashi mumkinligi hisobga olinadi. Chunki bunday o'zgarishlarni patologiya deb bo'lmaydi.

Hayvonlarda uchraydigan deyarli hamma kasalliklarning o'ziga xos belgilari yoki belgilar yig'indisi bor, lekin kasallikni aniqlab olishda simptomokompleksdan asosiylarini ajrata bilish muhim. Bu tekshirish metodikasida ma'lum malaka bo'lishini, shuningdek, jarayonning o'tishidagi turli davrlarda kuzatiladigan kasallik belgilarini bilishni talab etadi.

Klinik tekshirishlar: 1) umumiy tashqi tekshirish; 2) ichki tekshirish; 3) laborator tekshirishlaridan (material olish va uni laboratoriyaga yuborish yoki o'sha joyning o'zida tekshirish) iborat bo'ladi.

Umumiy tekshirishda hayvon organizmining yaxlitligini hamisha esda tutish va hayvonning jinsiy a'zolarini tekshirish bilangina cheklanmas-dan, balki umumiy klinik tekshirishlar ham o'tkazilishi kerak. Ayni vaqtda hayvonning qorni (shakli, paypaslanganda og'riq sezishi), sag'risi (holati, shakli, tutqich apparatining holati) va tashqi jinsiy a'zolariga (yallig'lanish belgilari, suyuqlik ajralishi va uning xarakteri va b.) e'tibor beriladi.

Harakatlarning uyg'unligi, oqsoqlanish, artrit, bursit (brusellyozga gumon tug'diradi) belgilari, hayvonning og'irligini bir oyoqdan ikkinchi oyog'iga solib turishi, tez-tez siydik ajratish va tezaklash, dumini likillatishi (trixomonozga gumon tug'diradi) va boshqa belgilar bor-yo'qligi tashqi tekshirish orqali aniqlanadi.

Ichki tekshirish - vaginal (qin orqali) va rektal (to'g'ri ichak orqali) tekshirishdan iborat bo'lib, jinsiy a'zolarida patologik jarayon yoki anomaliyalar oqibatida vujudga kelgan anatomik o'zgarishlarni ko'zdan kechirish va paypaslab ko'rish bilan aniqlashga imkon beradi.

Qin orqali tekshirishda qo'l bilan jinsiy lablar ochilib, qin dahlizining shilliq pardasi va klitor ko'zdan kechiriladi. Keyin paypaslash bilan qin dahlizi, qin va bachadon bo'yni tekshiriladi.

Ko'zdan kechirish vaqtida tabiiy yoki sun'iy yorug'likdan (reflektor, elektr fonarcha) foydalaniladi. Qin shilliq pardasi normal holatda och qizil yoki qizil rangda va o'rtacha namlikda bo'ladi. SHilliq pardada patologik o'zgarishlar

kuzatilganda qizarish, shishgan joylar, katta-kichik qon quyilishlar, shilimshiqli, yiringli ekssudat oqishi va yorilishlar, tugunlar, pufakchalar, eroziyalar va hokazolar paydo bo'ladi. Bundan tashqari, qin orqali tekshirishda o'sma, chandiq, jarohat, yara va boshqa o'zgarishlar aniqlanadi. Paypaslab ko'rilganda, qin shilliq pardasining g'adir-budurligi seziladi. Studensov A.P., SHipilov V.S., Nikitin V.YA (2000).

Differensial diagnostikada patologik jarayonning xususiyati ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, tugunlarning klitor yuzasida g'uj-g'uj bo'lib joylashishi va nurga o'xshab tarqalgan qatorlar shaklida qin dahlizining yon tomonida joylashishi sigirlarda uchraydigan yuqumli vaginit (vestibulit) kasalligiga gumon tug'diradi.

Bachadon bo'ynini ko'zdan kechirishda uning joylashishi, shakli, katta-kichikligi va bachadon bo'yni kanali tashqi teshigining qanchalik ochiq turganligiga e'tibor beriladi.

Hayvonlarda bachadon bo'yni odatda o'rtasida teshigi bo'lgan silindrik do'mboq ko'rinishida qin bo'shlig'iga botib turadi (biyalarda 5 sm gacha, sigirlarda 2-3 sm gacha). Bachadon bo'yni ko'pincha biror tomonga, pastga yoki yuqoriga siljigan bo'ladi, bu hamma vaqt ham patologik jarayon borligini ko'rsatmaydi. Bachadon bo'ynining kanali (qoramollarda) faqat tug'ish vaqtida, tug'uruqdan keyin bir oz vaqt va kuyikish paytida ochiq turadi. Hayvon kuyikmagan paytda bachadon bo'yni kanalining ochiq turishi patologiya hisoblanadi. Bachadon bo'yni kanalidan suyuqlik kelayotgan bo'lsa, uning sababi aniqlanadi.

Rektal tekshirish bilan barcha ichki jinsiy a'zolarining holatini aniqlash mumkin. Sigirlarda qo'l to'g'ri ichakka kiritilgandan keyin avval bachadon bo'yni topiladi. Agar u kattalashgan va paypaslab ko'rilganda xamirsimon yoki juda qattiq bo'lsa, bu patologiyadan darak beradi. Keyin, qo'lni bachadon bo'ynidan oldinga surib, bachadon tanasi va shoxlari paypaslab topiladi. Ayni vaqtda bachadon shoxlarining shakli, katta-kichikligi, konsistensiyasi va simmetrikligiga

e'tibor beriladi. Bundan tashqari, bachadon devorlarining yuzasi va ichidagi moddalarning sifati aniqlanadi (SHipilov V.S. va b., 1998).

Paypaslab ko'rilganda bachadonning biroz kattalashganligi (ya'ni, fluktuasiyasi) sezilsa, mazkur hayvonning bo'g'oz yoki bo'g'oz emasligini aniqlash kerak. SHunga qarab, hayvon davolanadi yoki kasallanmagan degan xulosaga kelinadi. SHundan keyin tuxumdonlar paypaslab topiladi (tuxumdonlar bachadon shoxlarining uchida joylashgan bo'ladi). SHunda ularning kattaligi, shakli, konsistensiyasi, sezuvchanligi va yuzasining holatiga e'tibor beriladi. Tuxumdonlarning konsistensiyasi va kattaligi follikulalarning yetilayotganligi yoki sariq tana hosil bo'lganligiga qarab o'zgaradi. Ana shunday fiziologik o'zgarishlar patologiyani aniqlashda hisobga olinadi.

Normal holdagi tuxum yo'llarini to'g'ri ichak orqali paypaslab topib bo'lmaydi. Tuxum yo'llari tugun-tugun, zich yoki qalqiydigan tizimchaga o'xshagan bo'lsa, bu tuxumdon naylarining o'zgarishlarga uchraganligini bildiradi.

Diagnoz qo'yish uchun ko'pincha anamnez, tashqi va ichki klinik tekshirish aniq ma'lumot bermaydi. Bunday hollarda diagnoz qo'yish yoki uni tasdiqlash uchun laborator tekshirish usulidan foydalaniladi.

Laborator tekshirish ma'lumotlari biror kasallikka diagnoz qo'yish uchun yordam beribgina qolmasdan, balki ba'zan kasallikning kechishi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish, davolash rejasini tuzish va maqsadga muvofiq usullarni tanlashga yordam beradi.

Ginekologiya amaliyotida ham kasallik sababini aniqlash maqsadida qindagi suyuqlik holatini, bachadon va qindagi mikroorganizmlarni aniqlashga to'g'ri keladi.

Laborator tekshirishlar uchun namunalar olishdan oldin jinsiy a'zolar yuvilmaydi, siydik yo'lidan va qindan olinadigan suyuqlikni tekshirish zarur bo'lganda esa qoviqni ham bo'shatmaslik kerak, chunki suyuqliklar siydik va dezinfeksiyalovchi moddalar bilan yuvilib ketganda olingan namunada mikroorganizmlar bo'lmasligi mumkin.

Ekspress usul. Sigirlarda bachadon gipotoniyasi va endometrit kasalliklarida ekspress (Dyudenko tavsiyasi bo'yicha) usulda hayvon tuqqandan so'ng jinsiy a'zolaridan ajralayotgan loxiy va kuyikishdagi shilimshiq moddalar tarkibida indikan (bachadonning qisqarishi buzilganda) hamda endometrit kasalligida aromatik qatorga kiruvchi zaharli moddalarning (indol, skatol va boshqalar) ko'payishini aniqlashga asoslangan usuldir. Bu usulni bajarishda qo'lga polietilen qo'lqop kiyilib, tekshirayotgan sigirlarning qiniga yuboriladi va tuqqandan so'ng bachadondan ajralayotgan loxiy va bachadon bo'yinchasi atrofida shilimshiq modda olinib, bankachaga yoki probirkaga solinadi hamda idishlarga sigirlarning laqabi va tartib soni yozib qo'yiladi.

Material olingandan so'ng darhol tekshirilishi kerak, lekin uni salqin joylarda 2-3 soat mobaynida saqlash ham mumkin. Sigirlar biror nuqsonli bola tuqqanda 5-6 kundan so'ng jinsiy a'zolaridan ajralayotgan loxiy va bachadon bo'yinchasi atrofida olinadigan shilimshiq bir necha bor qochirilayotgan sigirlardan jinsiy qo'zg'alish davrida olinadi. Probirkaga 5 ml tekshirilayotgan loxiy uning ustiga 5 ml 2%-li uch xlorli sirka kislotasi eritmasidan solinib, aralashtiriladi va 3-4 daqiqadan so'ng qog'oz filtdan o'tkaziladi. So'ngra sentrifuga probirkasiga 4 ml filtrat solinib, uning ustiga 2 ml 5%-li timol eritmasidan qo'shib aralashtiriladi, keyin esa unga 6 ml reaktiv quyilib, 1 soat saqlanadi. SHundan keyin bu probirkaga etil spirtining xloroform aralashmasidan 1 ml solib, aralashtiriladi va sentrifugaga o'rnatilib, minutiga 1-2 ming marta aylanish tezligida 5 daqiqa aylantiriladi.

Reaksiyani baholash: xloroform tiniq bo'lsa (-) - bachadonning qisqarishi norma atrofida, oq pushti rang (+) - bachadonning qisqarishi qisman buzilgan, pushti rang (++) - bachadon gipotoniyasi, binafsha qizg'ish rang (+++) - bachadon gipotoniyasi yoki atoniyasi, binafsha rang (++++) - bachadon atoniyasi deb hisoblanadi.

Bakteriologik tekshirish jinsiy a'zolaridan ajralayotgan ekssudatlar tarkibida trixomonoz, vibrioz kasalliklari qo'zg'atuvchilarni hamda shartli patogen mikroorganizmlar va zamburug'larning borligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Trixomonoz qo'zg'atuvchisini topish maqsadida sigirlarning jinsiy a'zolaridan shilimshiq modda yoki yallig'lanish jarayonidan ajralayotgan ekssudatdan tomchi tayyorlab tekshiriladi. Agar shilliq modda quyuq bo'lsa, uni steril fiziologik eritma bilan suyultirib yaxshilab aralashtirish mumkin.

Tekshirilayotgan tomchi mikroskopning qorong'ilashtirilgan maydonida oldin kichik ob'ektivda (XI20), so'ngra kattasida (X280-400) ko'rilganda harakatchan trixomondlarning xilpillovchi membranasi yaqqol ko'rinadi. Studensov A.P., SHipilov V.S., Nikitin V.YA (2000).

Vibrioz kasalligi qo'zg'atuvchisini aniqlashda shilimshiq moddadan surtma tayyorlanadi va turli bakteriologik bo'yoq (korbolli, fuksin, gensianviolet, metil ko'ki va boshqa)lar bilan bo'yaladi. Surtma mikroskop ostida immersion sistemada tekshiriladi, bunda vibrioz kasalligini qo'zg'atuvchisi vergulsimon yoki parmasimon shaklda bo'ladi.

Bepushtlikning sabablari xilma-xildir. Bepushtlik urg'ochi yoki erkak hayvonlardagi etishmovchiliklar va organizm bilan tashqi muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning buzilishiga bog'liq. Urg'ochi hayvonning hayoti davomida tashqi muhitning noqulay ta'siri uni vaqtincha yoki bir umr qisir bo'lib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Professor A.P.Studensov tasnifi bo'yicha sabablariga ko'ra, pushtsizlikning 7 turi mavjud: tug'ma, qarilik, simpotomatik, alimentar, ekspluatasion, iqlimiy, sun'iy. Ammo amalda bu sabablar ko'proq bo'lishi ham mumkin.

Pushtsizlik hayvonning hayoti davomida orttirilishi yoki tug'ma bo'lishi mumkin. Hayotda orttirilgan sabablarga ko'ra, pushtsizlik quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Alimentar pushtsizlik (alimentum - oziq-ovqat) hayvonni noto'g'ri oziqlantirish tufayli kelib chiqadi. Hayvonlarni noto'g'ri oziqlantirish, ularni

yetarlicha oziqlantirmaslik (em-xashak yetishmasligi - och qolishi), keragidan ortiqcha oziqlantirish (semirib ketishi) yoki rasionda jinsiy tizim a'zolarining faoliyatiga ta'sir etuvchi muhim komponentlarning (oqsillar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalar) yetarlicha bo'lmasligi qisirlikka olib kelishi mumkin. Masalan, A gipovitaminozda bachadon shilliq pardasi epiteliysida o'zgarishlar kuzatiladi; B gipovitaminozda jinsiy bezlar degenarativ o'zgarishlarga uchraydi, akobaltoz paytida ko'payish funksiyasi izdan chiqadi va h.

Hayvon yetarlicha oziqlantirilmaganda organizm zaiflashadi, bu jinsiy jarayonlarga ta'sir etadi (kuyikish va ovulyasiya bo'lmaydi). Hayvonlar oqsil, uglevod yoki yog'larga boy bir xildagi oziqalar bilan uzoq muddat boqilganda tuxumdonlar funksiyasi susayib, ularning maxsus to'qimasi asta-sekin yog' kletchatkasi bilan almashinadi. Semirib ketgan hayvonlarning tuxumdoni kichrayibgina qolmay, balki zichlashadi ham, bunda urg'ochi hayvon avvaliga qisqa muddatga kuyukadi, keyin esa butunlay kuyukmaydi (I.P.Kondraxon, 2005).

Hayvon me'yorida oziqlantirilganda ham modda almashinuvi buzilishlari kuzatilgan (oshqozon-ichak va boshqa a'zolar kasalliklarida) bo'lsa, alimentar qisirliklar kelib chiqishi mumkin.

2. Hayvonlarni noto'g'ri asrash va foydalanish oqibatidagi pushtsizlik. Hayvonlarni muntazam yayratmaslik, namlik yuqori, havosi yaxshi almashmaydigan hamda o'ta sovuq yoki issiq binolarda saqlash oziqaning yaxshi hazmlanmasligi va organizmda moddalar almashinuvini susayishiga sabab bo'ladi. Bularning hammasi jinsiy a'zolar funksiyasini susaytiradi, bu esa jinsiy siklning me'yorida kechmasligi yoki yo'qolishiga sababchi bo'ladi.

Urg'ochi otlarni haddan tashqari ko'p ishlatish, jumladan yo'rg'a va chopqir biya zotlarini to'xtovsiz aravaga qo'shish ko'pincha jinsiy a'zolar funksiyasining susayib qolishi va qisirlikka sabab bo'ladi.

3. Urg'ochi hayvonlarni noto'g'ri urug'lantirish. Urg'ochi hayvonlarni qisir-bo'g'ozligini o'z vaqtida tekshirmaslik oqibatida kelib chiqadigan, shuningdek, erkak hayvondagi funksional etishmovchiliklarga aloqador kasallik. Hayvonlar

uruqlantirilganligi hisobga olib borilmasa, erkak nasldor hayvon ortiqcha zo'riqib, jinsiy zaiflashishi mumkin.

Hayvonning kuyikkanligini o'z vaqtida aniqlamaslik va jinsiy siklni o'tkazib yuborish qisirlikka sabab bo'ladi. Urg'ochi hayvonlar voyaga etgandan keyin o'z vaqtida urug'lantirilmasa, bachadonda atrofik jarayonlar yuzaga kelib, tuxumdonlar funksiyasining buzilishiga olib keladi. Vaqtida kuyukib turadigan hayvonlarning uzoq muddat urug'lantirilmay qolishi ovulyasiya va kuyikishning bir umr yoki uzoq muddatga to'xtashiga sabab bo'ladi.

4. Jinsiy a'zolarining (ginekologik) kasalliklariga aloqador pushtsizlik. Urg'ochi va erkak hayvonlarning ko'pchilik kasalliklari oqibatida qisirlik kuzatilishi mumkin.

Safiullov R.N. (2009) ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyaning Ulyanovskiy oblastida sigirlar orasida ginekologik kasalliklardan to'qqandan keyingi endometrit 36,71 %, tuxumdonlar kasalliklari – 25,54% sigirlarda, patologik va asoratli tug'ishlar – 19,33 %, abortlar – 1,2 % hollarda qayd etiladi.

5. Iqlimga aloqador pushtsizlik hayvonlar iqlimi jihatidan keskin farq qiladigan bir joydan ikkinchi joyga ko'chirilganida yuzaga keladi, bunda hayvonlar yangi yashash sharoitlariga moslasha olmaydi.

6. Yaqin qon-qarindosh urug'lantirish oqibatidagi pushtsizlik.

7. Qarilikka (klimakterik) aloqador pushtsizlik. Bunda ovulyasiya to'xtaydi va hayvon kuyukmaydigan bo'lib qoladi. Klimakterik davr sigirlarda 15-20 yoshda, qo'y va echkilarda 8-9 yoshda, cho'chqalarda 6-8 yoshda, biyalarda esa 20-25 yoshda boshlanadi.

8. Pushtsizlikning immunologik sabablari. Urg'ochi hayvonning qoni va jinsiy yo'llarida doimo oz miqdorda spermatoksinlar mavjud. Ular miqdori yallig'lanish natijasida keskin ko'payadi. Bu toksinlar sifati bo'yicha har xil bo'lishi mumkin: autospermatoksinlar, izospermatoksinlar (turiga qarashli spermiylarni o'ldiradigan), giterosermotoksinlar (boshqa turga qarashli spermiylarni

o'ldiradigan), lizinlar (spermiylarni eritish) kabi xususiyatga ega bo'ladi, hamda yuborilgan spermaga mahalliy allergik reaksiya bilan javob qaytaradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bepushtlik tug'ma bo'lishi ham mumkin. Tug'ma bepushtlik: infantilizm, germafroditizm, frimartinizm va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi.

1. Infantilizm deb, urg'ochi va erkak hayvon jinsiy a'zolarining to'liq etilmay qolishi yoki hayvon urug'lantirish yoshiga yetganida jinsiy siklning bo'lmasligiga aytiladi.

2. Germafroditizm - deb bitta individning o'zida urg'ochi va erkaklik jinsiy a'zolarining bo'lishiga aytiladi. Bunday holatda jinsiy a'zolar odatda rivojlanmay qoladi. Haqiqiy germafroditizm juda kamdan-kam uchraydi.

3. Frimartinizm paytida urg'ochi hayvonning ba'zi jinsiy a'zolari rivojlanmay qolgani holda klitor haddan tashqari rivojlanib, shaklan erkaklik jinsiy a'zosiga o'xshab qoladi. Bu patologiya asosan, sigirlar har xil jinsli egizak tuqqanida urg'ochi buzoqda kuzatiladi.

Jinsiy a'zolarining boshqa anomaliyalari bachadon bo'yni yoki kanalining bo'lmasligi, qinning qisman yoki butunlay bitib qolishi va boshqa turlarda bo'ladi.

Simptomatik pushtsizlikga yuqumsiz, yuqumli va invazion kasalliklar sabab bo'lishi mumkin. Bular orasida akusher-ginekologik kasalliklar (tuxumdon, tuxum yo'llari, bachadon, qin, elin kasalliklari) katta salmoqqa ega va nasilsiz hayvonlarning 15 - 35 foizini tashkil etadi. Natijada, tuxumdon vazifasi buziladi, bachadon qisqarmaydi, undagi muxit o'zgaradi va spermatozoidlarning yashashi hamda harakati uchun sharoit bo'lmaydi. Nasilsizlikni yuzaga keltiruvchi sabablar jinsiy siklning buzilishi, nimfomoniya, tuxum xujayrasi va zigotaning o'lishi, tuxum yo'lining torayishi yoki yopilib qolishi natijasida zigotaning bachadonga tushmasligi va boshqalar bo'lishi mumkin.

Internet ma'lumotlariga (<http://skotovodstvo.blogspot.com/2010/01/1.html>) ko'ra, bepushtliklar jinsiy a'zolarining tug'ma yetishmovchiliklari (infantilizm, frimartinizm, germafroditizm) tufayli ham kelib chiqishi mumkin. Infantilizm

organizmni va jinsiy a'zolari to'liq rivojlanmasligi, frimartinizm tanalarda qinni, bachadon buyinchasi va shoxlarini yaxshi rivojlanmaganligi hamda klitorni kuchli darajada rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

Pushtsizlikka sabab bo'ladigan ginekologik kasalliklar orasida jinsiy a'zoldagi yallig'lanish jarayonlari katta salmoqqa ega. Bu kasalliklar ko'pincha surunkali kechadi va jinsiy a'zolarning morfologik o'zgarishlari hamda funksional kamchiliklari bilan birga davom etib, hayvonni vaqtincha yoki umrbod pushtsizligiga sabab bo'ladi, organizmning umumiy ahvoliga ta'sir etadi va ayrim hollarda o'limiga sabab bo'ladi.

2.2. Sigirlarda metritlarning sabablari, patogenezi, diagnostikasi va differensial diagnostikasi

O.V.Sokolova (2007) ma'lumotlariga ko'ra, sigirlar ginekologik patologiyalarida yallig'lanish bilan kechadigan kasalliklar ularni bog'lab parvarishlashda 30,71% ni, bog'lamasdan parvarishlashda esa 32,8% tashkil etadi. Reproktiv tizim funksiyalarining buzilishlari shunga mos ravishda 69,29% va 67,20% tashkil etib, ular orasida hayvonlarni bog'lab parvarishlashda tuxumdonlar gipofunksiyasi (40,71%), tuxumdonlar kistasi (30,0%) ko'p uchraydi.

O.V.Sokolova (2007) ma'lumotlariga ko'ra, yuqori mahsuldor sigirlarda tug'ishlar orasining uzayishi sut mahsuldorligini har bir bepustlik kunlari hisobiga o'rtacha 0,48% ga kamayishiga sabab bo'ladi. Yillik sut mahsuldorligi 5-6 ming kg sigirlar podasida mahsuldorlik bir boshga bir bepustlik kunda 24-28 kg gacha kamayishi mumkin.

O.V.Sokolova (2007) ma'lumotlariga ko'ra, yuqori mahsuldor sigirlar rasioniga qo'shimcha ravishda essensial mikroelementlarni tug'ishiga 15 kun qolgandan boshlab va tuqqandan keyin ham 100 kun davomida kiritish orqali organizmining energitik ehtiyojlarini to'la qondirish, modda almashinuvlarini

ma'romlashtirish hamda hayvonlarning reproduktiv xususiyatlarini yaxshilashga erishilgan.

O'tkir endometritlarning sabablari. Bachadon shilliq pardasi ko'pincha mikroorganizmlarning (streptokokk, stafilokokk, ichak tayoqchasi va b.) qindan yoki qon tomirlari orqali o'tishidan yallig'lanishi mumkin.

Patologik tug'ishlarda bachadonning jarohatlanishi, ajralmay qolgan homila pardalarining chirishi, bachadon involyusiyasining sekinlik bilan (bachadon atoniyasi) kechishi endometritga sabab bo'ladi. Hayvonlarni noto'g'ri asrash va parvarishlash, oziqalar tarkibida vitaminlar va mineral moddalar etishmasligi va masionning etarlicha bo'lmasligi oqibatida ko'pincha bachadonning involyusiyasi (subinvalyusiya) sekinlashadi.

Hayvonni sun'iy urug'lantirishda aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilinmasligi, shuningdek, kasal hayvonlarni urug'lantirgan erkak hayvon urug'lantirganda ham jinsiy yo'llarga infeksiya tushishi mumkin.

I.S.Koba (2010) ma'lumotlariga ko'ra, Krasnodar o'lkasida sigirlarning o'tkir endometritlari keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lib, tuqqan sigirlarning o'rtacha 46,0% ida qayd etiladi. Yangi tuqqan sigirlarda bachadonning yallig'lanishlarining turlari quyidagicha uchraydi: kataral endometrit - 20,9%; kataral-yiringli - 60,0%; fibrinoz endometrit - 12,1%; nekrotik endometritlar - 6,9% sigirlarda qayd etilgan.

Sigirlarning o'tkir endometritlari yilning fasllari bo'yicha o'rganilganda qish-erta bohor fasllarida 67,3%, yoz faslida esa 21,9% sigirlarda qayd etilgan. Oqibatda sigirlarning otalanishi o'rtacha 47 kunga kechikkan, otalanish indeksining 1,2 martaga ko'payishi kuzatilgan. Kasallangan sigirlarda tuqqandan keyin otalanish muddati o'rtacha 156 kunni tashkil etib, sog'lom sigirlarga nisbatan 87 kunga ko'p bo'lgan.

Bachadon shilliq pardasining yallig'lanishi tashqaridan qaraganda mahalliy jarayon tarzida o'tadi. Lekin organizm rezistentligining pasayishi, qon va limfa

tizimiga mikroorganizmlar tushganda umumiy kasallik - sepsis (septiesmiya, piemiya) vujudga keladi.

Vaginal tekshirishda bachadon bo'ynining shilliq pardasi tiqinga o'xshab do'ppayib turadi, qizargan va bir oz bo'rtgan bo'ladi, bachadon bo'yni kanali ochiq turadi, qin tubida ekssudat to'planib turadi. Kataral endometritda ekssudat xira, kul rang va yopishqoq, yiringli endometritda esa sarg'ish rangli, ba'zan qo'lansa hidli bo'ladi.

Surunkali endometrit diagnostikasi. Sigirlar odatdagicha kuyukib turgani bilan qisir qolishiga, shuningdek, hayvon kuyukkan davrda jinsiy yo'llardan ko'p miqdorda yiring aralash loyqa shilimshiq suyuqlik oqishi diagnoz uchun asos bo'ladi.

Biyalarda bu kasallik to'g'ri ichak orqali tekshirish bilan aniqlanadi. Bunda bachadon tanasining yoki ko'pincha ikkala shoxining hamma joyida yoki qisman qalinlashganligi topiladi, ular qo'lga zichlashgan, atoniya holida seziladi, ba'zan hayvonda og'riq sezish kuzatiladi.

Surunkali kataral endrometrit diagnostikasi. Sigirlarda to'g'ri ichak orqali tekshirishda ko'pincha bachadon shoxlarining assimmetriyasi va uning biroz kattalashganligi aniqlanadi. Ba'zan bachadon devorining ba'zi joylarida tebranib turadigan to'plamlarini (kista) topsa bo'ladi. Bachadon devorlari va tuxum yo'llarida qotib qolgan, tugunchalarga o'xshagan qalin tortgan joylar bo'lsa, tuberkulyoz to'pchalari bor deb gumon qilishga asos bo'ladi. Bunday hollarda bachadon suyuqligi bakteriologik tekshirishdan o'tkazib, sil tayoqchalari bor-yo'qligini aniqlash kerak. Studensov A.P., SHipilov V.S., Nikitin V.YA (2000).

Biyalarda to'g'ri ichak orqali tekshirishda bachadon yumshoq xamirdek qo'lga seziladi, shu bilan bir vaqtda tanasi, ba'zan esa shoxlari ham me'yoriga nisbatan 2 baravar kattalashgan bo'ladi.

Kataral endometritni ba'zan to'g'ri ichak orqali tekshirish bilan aniqlab bo'lmaydi. Qin orqali tekshirishda bachadon bo'yni kanalining ochiq turganligi va

undan biroz miqdorda tiniq shilimshiq oqayotganligi, bachadon shilliq pardasining biroz shishganligi va qizarganligi aniqlanadi.

Internet ma'lumotiga ko'ra, (<http://webmvc.com/bolezni/livestock/tocology/retentio.php>) biyalarda yo'ldoshni ushlanib qolishi umumiy holatning yomonlashishi bilan o'tadi. Kasallikning birinchi kunidayoq umumiy holsizlanish, tana haroratining ko'tarilishi, puls va nafas chastotasining tezlashishi, ishtahaning yo'qolishi kuzatiladi. Hayvon qattiq kuchanadi, bezovtalanadi, bachadondan to'q-qizil rangda qo'lansa hidli ekssudat ajraladi. Qattiq kuchanish oqibatida bachadonni chiqishi qayd etilishi mumkin. Tezlik bilan davolash tashkil etilmaganda hayvonning umumiy holati qisqa vaqt ichida juda og'irlashadi, septicemiya va 2-3 kun ichida o'lim kuzatilishi mumkin.

Surunkali yiringli-kataral endometritda diagnoz to'g'ri ichak orqali tekshirishda bachadon shoxlaridan biri yoki ikkalasining kattalashib qolgani topiladi, shu bilan birga ular paypaslaganda likillab turadi. Bachadonda sil bo'lsa (sigirlarda), uning devorlarida tugunchalar qo'lga seziladi. Tuxumdonlarda ko'pincha so'rilmay qolgan sariq tana, ba'zan ikkala tuxumdonida ham bo'ladi.

Qin orqali tekshirishda burtib turgan bachadon bo'yni shilliq pardasining kuchli giperemiyasi va yiring aralash shilimshiq bilan qoplanganligi aniqlanadi. Bachadon bo'yni qin qismidagi shilliq pardaning burmalarida ba'zan polip o'smalari uchraydi. Bachadon bo'yni shilliq pardasining shishi va burmalarining ko'tarilishi sigirlarda bachadon bo'yni kanalining juda torayib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Kasallik surunkali tus olganda yiringli-kataral endometrit bilan og'rigan ba'zi hayvonlar davolashdan keyin ham qisir qolishi mumkin.

Tuxumdonida sariq tana bo'lsa hayvon umuman kuyga kelmaydi (anafrodiziya). Tuxumdonlarning folikulyar kistasida hayvonning kuyikishi juda tez o'tadi va takrorlanib turadi (nimfomaniya).

I.S.Koba (2010) ma'lumotlariga ko'ra, tuqqandan keyin o'tkir endometrit bilan kasallangan sigirlar bachadonidan olingan suyuqlik tarkibidagi mikrofloralar o'rganilganda, zamburug'larning mikroorganizmlar bilan quyidagi asosiasiyalari

ajratilgan: *Str. pyogenes* + *P. vulgaris* + *Candida albicans* - 22,8%, *Staph. aureus* + *e. coli* + *Candida albicans* - 22,8%, *Staph. aureus* + *P. mirabilis* + *Candida albicans* - 20%, *e. coli* + *P. mirabilis* + *Candida albicans* - 11,4%, *e. coli* + *P. vulgaris* + *Candida albicans* + *Aspergillus fumigatus* - 8,5%, *Staph. aureus* + *e. coli* + *Candida albicans* + *Aspergillus fumigatus* - 8,5%, *Staph. aureus* + *P. mirabilis* + *e. coli* + *Candida albicans* + *Aspergillus fumigatus* + *Mucor racemosus* - 5,7%.

O'tkir endometrit bilan sigirlarning kasallanishi tuqqandan keyingi 1-8 sutkaga, bachadon subinvalyusiyasi rivojlanganda 9-14 kunlarida qayd etilgan.

Surunkali yiringli endometrit ko'pincha sigirlarda va ba'zan boshqa hayvonlarda uchraydi. Surunkali yiringli endometritning uch shakli farqlanadi.

Birinchi shakli «oqma» deb ataladi va bachadon bo'yni kanali ochiq turganligi sababli doimo yiringli ekssudat chiqib turadi. Kasallikning bu turi bachadon involyusiyasining sekinlashishi tufayli kelib chiqadi.

Ikkinchi turida jinsiy yo'llardan vaqti-vaqti bilan yiringli ekssudat kelib turadi. Bunga bachadon shilliq pardasining shishib ketishi va bo'yni kanalining vaqtincha bekilib qolishi va bachadon devori muskullari tonusining pasayishi sabab bo'ladi. Yiringli ekssudat bachadon bo'shlig'ida to'planib boradi va hayvon tanasining vaziyatini o'zgartirganidagina (masalan yotganda) qin orqali oqib chiqadi.

Uchinchi shaklida bachadon bo'yni kanali zich bekilib turgani uchun yiringli ekssudat bachadondan tashqariga oqib chiqmaydi. Endometritning bu turi hayvonda trixomonoz yoki homilani rivojlanishining ilk davrida o'lib qolishi paytlarida vujudga keladi.

Surunkali yiringli endometritlarning diagnostikasi. Oqma shaklida ba'zan qo'lansa hidli chirigan ekssudat doim jinsiy lablar atrofida teri va dumning ichki yuzasini ifloslantirib turadi. Kasal hayvon to'g'ri ichak orqali tekshirilganda etarli qisqarmagan va zich bo'lib turgan bachadon topiladi.

Qin orqali tekshirishda bachadon bo'yni kanalining ochiq turganligi va undan yiringli ekssudat kelayotgani ma'lum bo'ladi. Tiqinga o'xshash bo'rtib chiqib

turgan bachadon bo'yni shishgan va qizargan. Qinda hamisha yiringli ekssudat bo'lib, mikroskopda tekshirib ko'rilganda streptokok va diplokoklar topiladi. Piometrada hayvonning kuyga kelmasligi va jinsiy yo'llardan vaqti-vaqti bilan yiringli ekssudat oqishi asosiy belgi hisoblanadi.

To'g'ri ichak orqali tekshirishda bachadonning juda kattalashganligi aniqlanadi, paypaslanganda uning fluktuasiyasi seziladi. Piometrada bachadonning bunday holatda bo'lishini bo'g'ozlik bilan adashtirish mumkin, chunki piometra va 3-5 oylik bo'g'ozlikda bachadonning kattaligi bir xilda bo'lishi mumkin. Piometrada bachadon shoxlari bir xilda kattalashadi. Ba'zan uning ichida maserasiyalangan homila bo'lganda bitta shoxi ikkinchisidan kattalashadi. Bunday hollarda ayrim suyaklarni paypaslab topilishi diagnoz qo'yishga imkon beradi.

Sigirlarda piometra paytida bachadonni uncha qisqarmasligi, devorlarining qalin tortganligi, bachadon o'rta arteriyalari diametrining kichikligi va karunkulalarning kattalashmay qolganligiga qarab, bo'g'ozlik holatidan farqlanadi.

Qin orqali tekshirishda qin va bachadon bo'ynining tiqinga o'xshab, bo'rtib chiqqan qismining o'zgarmaganligi, qin shilliq pardasining yopishqoq shilimshiq bilan qoplanshi xarakterli bo'ladi. Studensov A.P., SHipilov V.S., Nikitin V.YA (2000).

Parametrit odatda bachadonning o'tkir yallig'lanishi natijasida, ba'zan yallig'lanishning ichak va qorin pardasidan o'tishi natijasida vujudga keladi. Mikroorganizmlar bachadondan asosan qon va limfa yo'llari orqali atrof to'qimalarga o'tadi. Ko'pincha absseklar paydo bo'ladi.

Sigirlarning tuqqandan keyin o'tkir endometrit bilan kasallanishiga organizmda immun tizimni zaiflashuvi, oqibatda qondagi leykositlarni $2,1 \times 10^{12}/l$ va limfositlarni 4,1% ga ortishi, segmentyadroli neytrofillar sonining 7% ga kamayishi, neytrofillar fagositar faolligi va fagositar sonining o'rtacha 15,9 i 0,9% ga kamayishi, hamda T va V - limfositlarni 13,8 va 11,6 foizga kamayishi xarakterli bo'lgan (Internet ma'lumoti, №33, 34).

I.S.Koba (2010) ma'lumotlariga ko'ra, sigirlarning o'tkir endometritlar bilan kasallanishida ikkilamchi omillar faol masionning yetishmasligi, hisoblanadi chunki sigirlar uzoq muddat bir joyda saqlanganda faqatgina 36,4% sigirlarda tuqqandan keyingi davrning me'yorida kechishi kuzatilgan bo'lsa, sigirlarning 40,0% ida bachadonning turli darajada yallig'lanishlari qayd etilgan. SHundan 50,0%, sigirlarda o'tkir endometrit, 28,5% sigirda tuxumdonlar funksiyasining buzilishlari kuzatilgan.

Pankov B. G. (2003) ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya Federatsiyasining 15 dan ortiq viloyatlarida sigirlar orasida yo'ldoshni ushlanib qolishi 8,5%, klinik endometritlar 9,7% ni tashkil etib, hayvonlarni oziqlantirish sharoitlari yomonlashganda va samaradorligi past davolash usullari qo'llanilganda bu patologiyalar 70 – 80 foizga etishi mumkin.

Subklinik ketoz darajasida modda almashinuvlari buzilishi kuzatilgan sigirlarda keton tanachalari homila yo'ldoshi orqali o'tadi va homilaning me'yorida rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hayvonlar orasida o'lik bola tug'ish, nimjon va immun tanqisligi bilan tug'ilgan buzoqlar orasida diareya kuzatilib, ko'pincha o'lim bilan tugaydi. Bunday buzoqlar kelajakda podani to'ldirish uchun yaroqsiz bo'ladi. SHuning uchun silos-kontsentrat tipda oziqlantirish sutchilikka ixtisoslashgan qoramolchilikni rivojlantirishning bir varianti bo'lsada, chorvachilikda rentabellikni keskin pasayishiga sabab bo'ladi.

Sigirlarda modda almashinuvi buzilishlarini oldini olishda to'laqimmatli oziqlantirish, katta qorinda oziqalar hazmlanishini yaxshilash orqali yangi tuqqan sigirlarda akusher–ginekologik kasalliklarni, yangi tug'ilgan buzoqlarda oshqozon–ichak kasalliklarini kamaytirishga erishish mumkin.

N.E. Laptev (1995) sichqonlarda o'tkazilgan tajribalarda estrogen gormonlarini qo'llash nafaqat urg'ochi balki erkak sichqonlarda ham sut bezi havfli shishini chakirganini aniqlagan. Sichkonlarda ovarioektomiya o'tkazilgandan keyin sut bezi o'smasining kichrayishi aniqlangan.

Internet ma'lumotiga ko'ra, (<http://webmvc.com/bolezni/livestock/tocology/retentio.php>) biyalarda yo'ldoshni ushlanib qolishi umumiy holatning yomonlashishi bilan o'tadi. Kasallikning birinchi kunidayoq umumiy holsizlanish, tana haroratining ko'tarilishi, puls va nafas chastotasining tezlashishi, ishtahaning yo'qolishi kuzatiladi. Hayvon qattiq kuchanadi, bezovtalanadi, bachadondan to'q-qizil rangda qo'lansa hidli ekssudat ajraladi. Qattiq kuchanish oqibatida bachadonni chiqishi qayd etilishi mumkin. Tezlik bilan davolash tashkil etilmaganda hayvonning umumiy holati qisqa vaqt ichida juda og'irlashadi, septitsemiya va 2-3 kun ichida o'lim kuzatilishi mumkin.

2.3. Sigirlarda bachadon yalliglanish (metritlarniig) davolash va oldini olish chora tadbirlari

Sigirlarda ginekologik kasalliklarni davolashning barcha usullari veterinariya-sanitariya hamda zootexnika qoidalariga, ya'ni sifatli oziqalar bilan oziqlantirish, quruq, toza molxonalarda asrash, kasallikning kechishiga ko'ra rasion berish va boshqa gigiena talablariga to'la amal qilgan holda olib borilishi kerak.

«Journal of veterinary pharmacology and therapeutics» (Okker H., Schmitt e., Scherpenisse P., Bergwerff A., Jonker F., 2002). Ma'lumotlariga ko'ra tug'ruqdan keyingi endometrit antibiotikoterapiyaning sxemasi quyidagicha.

Kasallikning kunlari	Dori va uning dozasi.
1	Tierkal — 10 ml teri ostiga, Aynil 10 % — 15 ml muskul orasiga yoki venaga
2	Tierkal — 10 ml teri ostiga, Aynil 10 % — 15 ml muskul orasiga yoki venaga
3	Tierkal — 10 ml podkojno, Aynil 10 % — 15 ml muskul orasiga yoki venaga
4	Tierkal — 10 ml teri ostiga

O.V.Markelov (2003) ma'lumotlariga ko'ra «Metrasul» suppozitoriyasini sigirlarda tug'ruqdan keyingi endometrit kasalligini davolashda bachadonga bir sutkada bir marta 5-6 kun davomida 3-4 donadan tashlashni tavsiya etadi.

Preparat qo'lga polietilen qo'lqop kiyib qo'l yordamida bachadon shoxlariga yuboriladi.

Sigirlarda tug'ruqdan keyingi endometritlarni oldini olish uchun sigir tuqqandan keyin birinchi marta «Metrasul» suppozitoriyasidan bachadon ichiga yuboriladi. Ikkinchi marta 24 soatdan keyin 3-4 dona suppozitoriya bachadonga tashlanadi.

I.S.Koba (2009) sigirlarda o'tkir endometritlarni oldini olish uchun o'z vaqtida akusher-ginekologik dispanserlash o'tkazish orqali kasal hayvonlarni aniqlash, kasallangan hayvonlarni alohida xonalarga ajratish, tug'ruqxonalarda gigienasanitariya qoidalariga rioya qilinishi, tug'ishda aseptika-antiseptika qoidalariga rioya etilishi, faol masion tashkil etilishi, patologik tug'ishlarda akusherlik yordami ko'rsatishni to'g'ri tashkil etish kabi profilaktik tadbirlarni bajarilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Sigirlarning pushtdorlik xususiyatlari ularning sut mahsuldorligi bilan bog'liq bo'lgan muhim xususiyatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Olimlarning fikricha, sigirlarning pushtdorlik xususiyatlariga oziqlantirish va asrash omillari bilan birga tashqi muhit omillaridan havo harorati, namligi, quyosh nuri ham katta ta'sir etadi. SHuning uchun ham sollarni sog'ligi va mahsuldorligi ta'minlashda bu omillardan ularni himoya qilishni choralarini ham ko'rish alohida ahamiyatga ega. sigirlarni tuqqandan keyin dastlabki 2 oy mobaynida urug'lantirish yuqori mahsuldor podalar yaratishda, podani qayta tiklash sur'atini oshirishda va sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim tadbir bo'lib hisoblanadi. Tuqqandan keyin dastlabki 31-70 kun mobaynida sigirlarning otalanishi eng maqbul muddat hisoblanadi, bundan muddat va

otalangan sigirlarning sut mahsuldorligi Ushba muddatlardan keyin otalangan tengqurlari mahsuldorligidan 19,1-30,0% yuqori bo'ladi.

Biologik va farmakologik dorilar bachadonga, teri ostiga muskul orasiga, qon tomir ichiga yuboriladi, ko'pincha ular etiotrop davolash usullarida ishlatiladi. Bu dorilar mahalliy, ya'ni qinga va bachadon bo'yinchasiga yuborilishi, bachadonga quyilishi ham mumkin yoki doka tamponlar shular bilan namlanib, yallig'langan joyga ishlatiladi.

Qin va bachadonni yuvishda kuchsiz antiseptik eritmalardan u erdagi yallig'lanish mahsuloti bo'lgan eksudatlarni tashqariga chiqarish uchun foydalaniladi. Eritma iliq holda ko'pincha suyuqlik ikkiyoqlama oqadigan kateter yordamida yuboriladi.

Sigirni stanokka kiritib, eritma solingan idish maxsus tergakka quyiladi va undagi eritmada asta-sekinlik bilan qinga 20-30 l quyiladi. Sigirlarni piometrit, gidrometrit kasalliklarida bachadon bo'shlig'ida to'plangan eksudatlarni chayib chiqarish uchun o'rta tuzlarning 2-10%-li eritmasidan foydalaniladi. Bachadonga yuborilgan suyuqlik massaj orqali to'la chiqarib olinadi. Bundan keyin qinning bachadon bo'yinchasiga yaqin tomoniga davolovchi eritmalar shimdirilgan, emulsiyalar surtilgan, poroshok sepilgan paxta yoki doka-paxtali tamponlar qo'yiladi. Bunday tamponlar bachadon bo'yinchasi yallig'langanda ham ishlatiladi (Gavrich V.G., Egunova A.V., Semyonov S.V., Jemerichkin D.A) 2000.

Internet ma'lumotlarida (2011) <http://bd.patent.su/2372000-2372999/pat/servlet/servlet5ae1.html> sigirlarda ginekologik kasalliklarni davolashda maxsus «qinni ochish moslamasi» dan foydalanish tavsiya etiladi.

Bachadonga dorilarni qo'yishda aseptik eritmalardan kamroq foydalaniladi; ulardan 500 ml gacha yuborish mumkin. Odatda, bachadonga turli suspenziyalar, moyli asosda (baliq, vazelin moylari) tayyorlangan emulsiyalar yuboriladi, 5%-li trisillin suspenziyasi, 5%-li yodvismutsulfamid suspenziyasi, ginekologik (furazolidonli, furaginli xinozoli va boshqalar) suppozitorlar, 2,5%-li furagin va 5%-li furazilidon, o'zimizda va chet elda tayyorlangan patentli dorilar, tarkibida

nitrafuran saqlovchi dorilar va antibiotiklar (ekzuter, septometrin, tribressin, uterosan va boshqa) dorilardan foydalaniladi.

Bu dorilar bachadonga yuborilganda ko‘pik hosil qiladi, bu, dorini bachadonning barcha qismiga oson o‘tishiga yordam beradi. Dorilarning yuborish miqdori 50-100 ml yoki 2-5 kapsula yoki tayoqcha hisobida bo‘ladi. Bu usul bilan birgalikda bachadon muskullarning qisqarishini oshiradigan (ayniqsa, uni atoniyasi va gipotaniyasida) dorilarni parentirial yuborib davolash ham maqsadga muvofiqdir - bu borada muskul orasiga oksitosin va pituitrindan (30-40 TB) 1%-li brevikolin eritmasidan (10 ml), teri ostiga prozerinning 0,5%-li (2-3 ml) sinestrolning 1%-li eritmasini (2-4 ml) qo‘llash mumkin. Bachadonning qisqarishini kuchaytirish uchun 7 yoki 10%-li ixtiolning 40%-li glukozadagi yoki fiziologik eritmadagi eritmasi 15-20 ml miqdorida, steril og‘iz suti 20-30 ml miqdorida har 48 soat oralab 2-3 marotaba yuboriladi. SHuningdek, trivitamen, tetravit ham 5-10 ml miqdorida har 48 soat oralab 2-3 marotaba teri ostiga yuboriladi.

Lekin davolash natijasining ijobiy bo‘lishini ta‘minlash maqsadida, avval, bachadondagi ekssudat tarkibidagi mikroorganizmlar turi va ularning dorilarga bo‘lgan chidamliligini aniqlash lozim. Studensov A.P., SHipilov V.S., Nikitin V.YA (2000).

Fizikaviy davolash usullariga uqalash, shifobaxsh moylar va elektr bilan davolash usullari kiradi. Uqalash to‘g‘ri ichakka yuborilgan barmoqlar orqali silash, bachadon shoxlarini va tuxumdonlarini ezish yo‘li bilan olib boriladi.

SHifobaxsh loylar bilan davolashda turli tarkibdagi loylardan foydalaniladi. SHifobaxsh loylar dastlab qaynatilib sterillangan bo‘lib, u qinga maxsus shpris yoki sun‘iy qinda ishlatiladigan rezina kamera orqali yuboriladi.

Elektr bilan davolash endometritlarning turli shakllarida qo‘llaniladigan bachadon bo‘yinchasini stimullaydigan elektrostimul-yatorlar yordamida o‘tkaziladi.

To'qimalardan tayyorlangan dorilar bilan davolashda jigar, taloq va boshqalardan tayyorlangan dorilardan teri ostiga 10-20 ml yuboriladi. SHuningdek, jigar plasentar aralashmasi ham qo'llaniladi. Dorilar 2-5 marta har 5-7 kun oralig'ida ishlatiladi.

Autogemoterapiyada - autokson 60-100 ml miqdorida har 3-4 kun oralatib yuboriladi.

Novokainli blokadalar o'tkazish. Morozov usuli buyicha buykak oldi noaokainli blokadasini Bu usulda 0,2%-li novokain eritmasini (sigirlar uchun 300-350 ml, g'unajinlar uchun esa 200 ml miqdorida) bel umurtqasining o'ng tomonidagi ikkinchi va uchinchi ko'ndalang qovurg'asimon o'simtasidan 8-9 sm pastdan uzunasiga o'tadigan chiziq bo'lib yuboriladi.

O'tkir endometritlarni davolash. Endometrit bilan og'rikan hayvonlarga antibiotikoterapiya: (penisillin, streptomisin, biomisin, tetrasiklin, eritromisin va boshqalar) tavsiya etiladi. Penisillin ko'pincha streptomisin va boshqa antibiotiklar bilan birgalikda qo'llaniladi. Penisillin dozalari (1 kg tana vazniga ming TB hisobida): otlarga - 1-2, qoramollarga - 2-3, qo'ylarga - 4-10, cho'chqalarga - 2-3 hisobida muskul orasiga yuboriladi. Streptomisinning o'rtacha sutkalik dozasi qoramol uchun - 2-4 mln TB (5 ming TB/kg dozada kuniga ikki mahal). Kasal hayvonning ahvoriga qarab, har 3-6 soatda 1 marta in'eksiya qilinadi.

Antibiotiklar odatda hayvon sog'ayib, tana harorati me'yoriga kelganidan keyin ham 3-4 kun davomida qo'llaniladi. Antibiotiklar bachadon ichiga ham yuboriladi.

Mikroorganizmlar antibiotiklarga chidamli bo'lsa, sulfanilamid preparatlaridan sulfidin, sulfazol, sulfasil va norsulfazol kabilarni ishlatish kerak. Bu preparatlar 2-3 kun davomida kuniga 1-2 marta qo'llaniladi.

O'tkir endometritlarda umumiy davolash bilan birga bachadon qisqarishini kuchaytirish va bachadon bo'shlig'ini ekssudatdan bo'shatishga qaratilgan davolash tadbirlarini ham ko'rish zarur. Bachadonni yuvib, ekssudatni chiqarib tashlash yaxshi samara beradi.

Bachadonni yuvish uchun quyidagi eritmalar: rivanol, xinozol, tripaflavin yoki akriflavin eritmalari (1:1000), kaliy permanganat eritmasi (1:10000), soda eritmasi (1-2%-li), osh tuzi (1 va 3-10%-li), sut kislota (0,5%-li), borat kislota (2-3%-li), ixtiol (3%-li), tanin eritmasi (0,5%-li) va boshqalar 40°S gacha iliq holda ishlatiladi.

Yuvish bachadondan eritma rangidagi suyuqlik oqib chiqquncha davom ettiriladi. Bir marta yuvish uchun yallig'lanish jarayonining turi va darajasiga ko'ra, 2 l dan 10 l gacha dezinfeksiyalovchi eritma ishlatiladi (Internet ma'lumoti, №33, 35).

Bachadonda ekssudatning to'planishiga qarab, har kuni yoki kun ora yuviladi. Ajratmalar ancha kamayib qolgandan keyin uch-to'rt kunda bir marta yuvilsa bo'ladi. Yuvish vaqtida yuborilgan eritmaning hammasini bachadondan chiqarib tashlash zarur. Bachadonni yuvishdan oldin irigator yoki maxsus nasos bilan yallig'lanish ekssudatini tortib olish tavsiya etiladi.

I.S.Koba (2001) ma'lumotlariga ko'ra, bakterial-mikozli xarakterdagi o'tkir endometritlarni davolashda fupedin, bromasid va endoton preparatlari kompleks davolash xususiyatiga ega bo'lib, (antimikrob, yallig'lanishga qarshi, regenerativ jarayonlarni stimullovchi, uterotonik) ularni qo'llashning terapevtik samaradorligi yuqori hisoblanadi. Tug'ruqdan keyingi o'tkir endometritlarni davolashda puedinni qo'llashning terapevtik samaradorligi 90,3%, endoton -90%, bromasid -88,9% ni tashkil etgan. Ya'ni boshqa davolovchi vositalarga nisbatan 11,8-20% ga yuqori bo'lgan. Bu preparatlarning zaharlilik darajasi ham boshqa analoglariga nisbatan past hamda organizmdan tezda chiqarilib ketadi, shuning uchun sut bilan uzoq vaqtgacha ajralib turmaydi.

Endometritlarni davolash uchun gormonal va neyrotrop preparatlar: sinestrol, stilbestrol, karboxolin, prozerin va boshqalar ishlatiladi. Sinestrolning o'simlik moyi yoki spirtidagi 1%-li eritmasi 3-5 ml yoki 1,5-2,5 ml stilbestrol 24 soat oralatib 3-4 marta teri ostiga yuboriladi. Neytrotrop preparatlar (0,1%-li karboxolin

2-3; 0,5%-li prozerin 2-3 ml) teri ostiga yuboriladi. (Voskoboynik V.F., Kozlov G.P). 1991.

Kozirev YU.A. va boshqalar (1997) sigirlarda ginekologik kasalliklarni davolashda “streptodin” preparatining yuqori samaradorlikka ega ekanligini ta’kidlaydi. Preparat qinning, bachadon bo’yinchasi va bachadonning yallig’lanishlarini davolash uchun sigirning qiniga, agar bachadon buyinchasi ochiq holatda bo’lsa bachadonning ichiga yuboriladi.

“Streptodin” preparatining tarkibi (10 kg): 0,071 kg dioksidin; 1,428 kg streptotsid; 1,524 kg jelatina; 3,833 l distillangan suv va 3,143 l glitserindan iborat.

Surunkali endometritlarni davolash. Hayvonni yetarlicha oziqlantirish va parvarishlash, yayratish tavsiya etiladi. Davolashda bachadon massaj qilinadi va qin orqali 3-4 l dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan (harorati 42-43°S bo’ladi) har 1-3 kunda bir marta, kamida 4-5 marta vanna qilinadi.

Hayvonni urug’lantirishdan bir necha soat ilgari bachadonni 0,9%-li natriy xlorid (40-42°S) eritmasi bilan yoki tuz-soda-qand eritmasi bilan (100 ml distillangan suvga 1,0 natriy xlorid, 3,0 natriy bikarbonat va 90,0 qand) yuvib, keyin massaj qilish tavsiya etiladi (A.YU.Tarasevich, 2003). Bu eritmadan bachadonga 250-500 ml gacha yuborish kerak.

Bachadon bo’yni etarlicha ochiq bo’lgan taqdirdagina bachadonni yuvish mumkin. Eritmani bachadonga kiritishni iloji bo’lmasa, shu eritmada qinni yuvish bilan kifoyalaniladi, bachadon bo’ynini zo’rlab ochish yaramaydi. Vannalar bilan bir qatorda autogemoterapiya ham yaxshi natija beradi (3-4 kun oralatib, ikki marta).

Davolashda teri ostiga sinestrolning 1%-li yog’li yoki spirtli eritmasidan 3-5 ml har 24 soatda bir marta, jami 3-4 marta yuboriladi; stilbestrol 1,5-2,5 ml dan ishlatiladi (0,005%-li eritmasi). Estrogen gormonlar bilan bir paytda karboxolinni qo’llash ham sigirlarda yaxshi natija beradi. Bunda teri ostiga sinestrolning 1%-li yog’li eritmasi (3-5 ml), 2 soatdan keyin esa karboxolinning 0,1%-li suvdagi eritmasidan 2-3 ml yuboriladi. Bu preparatlar kunora, jami uch marta qo’llaniladi.

Surunkali kataral endometritlarni davolash. Kasal hayvonlarni avvalo to'la qimmatli oziqalar bilan etarlicha ta'minlash kerak. Davolashda xuddi o'tkir endometritdagidek bachadon dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan yuviladi. Eritmalar issiq ($42-43^{\circ}\text{S}$) holda bo'lishi kerak.

Natriy xloridning suvdagi eritmasi bilan endometritni davolash yaxshi natija beradi. Mazkur eritma bilan yuvish shilliq pardani anchaga ta'sirlantiradi va bachadondagi hamma nerv-muskul apparatini qo'zg'atadi. Eritma distillangan yoki qaynatilgan suvda tayyorlanadi. Eritma konsentrasiyasi bachadondan chiqadigan ekssudatning miqdori va sifatiga qarab, har xil bo'ladi. Dastlabki yuvish uchun 5-7%-li eritmalar ishlatilsa, ekssudatlar kamayib qolganidan keyin 2-4%-li eritmalar ishlatiladi va hokazo. Davolashning oxiriga kelib, natriy xloridning 1%-li eritmasi yoki yaxshisi tuz-soda-qand eritmasi ishlatiladi. YUvish uchun 2-3 l eritma kerak bo'ladi, ekssudat ko'p miqdorda chiqayotgan bo'lsa, bachadonni ko'proq yuvib turishi lozim.

Bachadon yuvilganidan keyin 10-15 daqiqa o'tgach, eritma qoldig'ini va undagi patologik mahsulotlarni bachadondan chiqarib tashlash kerak. Buning uchun bachadonni har 1-2 kunda to'g'ri ichak orqali massaj qilib turish lozim.

Bundan tashqari, sinestrol yoki stilbestrolning 1%-li eritmasi har 24 soatda bir marta, jami 3-5 marta teri ostiga yuboriladi.

Antibiotiklar, sulfanilamid preparatlari va organizmning umumiy tonusini hamda mahalliy va umumiy himoya kuchlarini oshiradigan boshqa shifobaxsh moddalar ishlatiladi.

Surunkali yiringli endometritlarni davolash. Kasallikning boshlang'ich davrida xuddi yiringli-kataral endometritdagidek bachadonni yuvish va massaj qilish kerak. Bundan tashqari, tuxumdonda sariq tana saqlanib qolgan bo'lsa, tegishli operatsiya qilinadi.

Kasallik surunkali kechganda bachadonni bir marta Lyugol eritmasi bilan yuvish zarur (A.YU.Tarasevich). Bachadonga 100-200 ml Lyugol eritmasi (kristall yod 1,0, kaliy yodid - 2,0 va suv - 100,0) yuborishdan oldin bachadon bo'yni

kanalini quruq steril tampon bilan artib, borli vazelin surtish lozim. Eritma bachadonda 10-15 daqiqa turgach, keyin to'g'ri ichak orqali massaj qilinib, tashqariga chiqarib tashlanadi. Ikkinchi kundan boshlab bachadon osh tuzining gipertonik eritmasi bilan yuviladi. Bachadon dastlab, 10%-li eritma bilan bir-ikki marta yuviladi, keyin eritmaning konsentrasiyasi asta-sekin kamaytirilib boradi va oxiri bachadon tuz-soda-qand eritmasi bilan yuviladi.

Piometrada xirurgik yo'l bilan davolanadi. Bachadon bo'ynining kanali yopiq bo'lsa, barmoqlarni parmasimon harakatlantirish bilan uni ochish kerak. Keyin bachadon bo'shlig'i natriy xloridning izotonik eritmasi bilan yuvilib, undan yiringli ekssudat chiqarib tashlanadi. SHundan keyin 100-200 ml Lyugol eritmasi yuborilib, 5 daqiqadan keyin bachadon to'g'ri ichak orqali massaj qilinadi. Keyingi kunlarda bachadon tuz eritmalari bilan yuviladi. (Voskoboynik V.F., Kozlov G.P. 2001).

I.S.Koba (2010) sigirlarda o'tkir endometritlarni oldini olish uchun o'z vaqtida akusher-ginekologik dispanserlash o'tkazish orqali kasal hayvonlarni aniqlash, kasallangan hayvonlarni alohida xonalarga ajratish, tug'ruqxonalarda gigienasanitariya qoidalariga rioya qilinishi, tug'ishda aseptika-antiseptika qoidalariga rioya etilishi, faol masion tashkil etilishi, patologik tug'ishlarda akusherlik yordami ko'rsatishni to'g'ri tashkil etish kabi profilaktik tadbirlarni bajarilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Hayvonlarni to'yimli oziqlar bilan oziqlantirmaslik, masionning etarli bo'lmasligi, molxonalarda antisanitariya sharoitlari ginekologik kasalliklarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. SHuni eslatib o'tish kerakki, qish va bahorda to'liq oziqlantirilmagan sigirlarning 50 foizida yozgi paytda ham moddalar almashinuvi darajasi tiklanmaydi. SHuning uchun har bir xo'jalikda etarli yem-xashak bazasini yaratish, hayvonlarning yoshi, tana vazni, fiziologik holati va mahsuldorligiga qarab, me'yordagi em-xashak bilan ta'minlash zarur (Kondraxon I.P., Levchenko V.I., 2005).

Ginekologik kasalliklarni oldini olish uchun har bir xo‘jalikda quyidagi umumiy xo‘jalik - zooeterinariya chora-tadbirlarni o‘tkazish lozim:

Moddalar almashinuvi darajasini nazorat qilish va oziqlantirishni tartibga solish maqsadida vaqti-vaqti bilan ayniqsa, qish va bahor oylarida sigir va g‘ujinlar qonidagi kalsiy, fosfor, karotin, oqsil va zahira ishqoriylik darajasini tekshirib turish lozim.

Rasionda vitaminlar etishmaganda ularning preparatlari rasionga kiritiladi. Vitaminlarning preparatlari bo‘g‘oz sigirlarga har 3-5 kunda bir marta, jami 5 marta quyidagi miqdorda muskul orasiga in‘eksiya qilinadi: A vitamini -200 ming HB, D vitamini -5 ming HB, E vitamini -10 mg. Ularning kompleks preparatlari (trivit, tetravit, tetramag) bir boshga 5-10 ml qo‘llanishi ham mumkin.

Rasionda yod etishmovchiligi aniqlanganda kuz, qish va bahor oylarida bo‘g‘oz sigirlarga har kuni 2-3 tabletka kayod preparati yem bilan berilishi yaxshi natija beradi. Kayod preparatini sog‘iladigan sigirlar va buqalarga berilganda ular mahsuldorligining ortishi kuzatilgan (B.M.Eshburiev, 2010).

Moddalar almashinuvini yaxshilanish, yo‘ldoshni ushlanib qolishi va buzoqlarda dispepsiya kasalligining oldini olish uchun bo‘g‘oz sigirlarning tug‘ishiga 25 kun qolganda silos, senaj kabi oziqalarni rasiondan chiqarish va o‘rniga 8-10 kg yarim qand lavlagi kiritish lozim. Bo‘g‘oz sigirlar rasionida 100 g oqsilga 80-150 g uglevod to‘g‘ri kelishini ta‘minlash lozim (Q.N.Norboev va b., 2007).

I.S.Koba (2010) ma‘lumotlariga ko‘ra, sigirlarning o‘tkar endometritlar bilan kasallanishi tuqqandan keyingi davrda bachadon shilliq pardasida endo- va ekzogen xarakterdagi shartli patogen mikroorganizmlarning rivojlanishi oqibatida kuzatilib, barcha davlatlarda sigirlarning o‘tkar endometritlar bilan kasallanishi ko‘p qayd etiladi.

Sigirlarning o‘tkar endometritlar bilan kasallanishida oziqlantirish va ularni bo‘g‘ozligida parvarishlashdagi etishmovchiliklar, modda almashinuvlarining buzilishi, organizm rezistentligini pasayishiga sabab bo‘ladigan omillar,

bachadonning lokal immunitetining pasayishi sababli unga tashqaridan tushgan mikrofloralar rivojlanishi uchun qo‘lay sharoit yaratilishi hisoblanadi. Studensov A.P. (2000).

Har bir xo‘jalikda yaxshi jihozlangan molxona va sayr maydonlari bo‘lishi kerak. Sigirlarni qoidaga asosan saqlash va tug‘ishiga 50-60 kun qolganda sog‘ishni to‘xtatishga e‘tibor beriladi.

Bo‘g‘oz va sutdan chiqarilgan sigirlarni alohida-alohida guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. G‘unojin va sigirlarni, ayniqsa, tuqqanidan keyin 3-4 kun o‘tgach, har kuni sayr qildirish zarur. Buning uchun ularni ferma atrofini aylantirib, kuniga 1-2 marta 2-3 km masofaga haydab turish lozim.

Fermada tug‘uruqxonalar va yangi tug‘ilgan buzoqlar uchun profilaktoriylar tashkil qilinib, tug‘ishiga 10 kun qolgan sigirlar yaxshilab tozalanganidan keyin tug‘uruqxonaga o‘tkaziladi, veterinariya-sanitariya qoidalariga amal qilingan holda tug‘adigan sigir va buzoqlarga birinchi yordam berish uchun navbatchilik yo‘lga qo‘yiladi.

Sigirning tug‘ishi me‘yorida o‘tishi uchun tug‘uruqxonalarda alohida bokslar tashkil qilinadi. Bokslarga sigir tug‘ishidan 2-3 kun ilgari o‘tkaziladi.

Sigir tuqqanidan keyin buzog‘ini yalashga imkon berish va buzoq kamida 5-7 kun onasi bilan birga saqlanishi lozim. Lekin bunda buzoq emishidan ilgari sigirning yelin so‘rg‘ichlari issiq suv bilan yaxshilab yuvilib artilishi zarur (Dani Glad, 2011).

Yuqoridagi chora-tadbirlarning o‘tkazilishi yo‘ldosh ajralishini tezlashtiradi, yelin kasalliklarining oldini oladi, sigirlar jinsiy faoliyatini tezda tiklaydi va buzoqlarni saqlab qolinishini ta‘minlanadi.

Subklinik ketoz darajasida modda almashinuvlari buzilishi kuzatilgan sigirlarda keton tanachalari homila yo‘ldoshi orqali o‘tadi va homilaning me‘yorida rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Hayvonlar orasida o‘lik bola tug‘ish, nimjon va immun tanqisligi bilan tug‘ilgan buzoqlar orasida diareya kuzatilib, ko‘pincha o‘lim bilan tugaydi. Bunday buzoqlar kelajakda podani

to'ldirish uchun yaroqsiz bo'ladi. SHuning uchun silos-konsentrat tipda oziqlantirish sutchilikka ixtisoslashgan qoramolchilikni rivojlantirishning bir varianti bo'lsada, chorvachilikda rentabellikni keskin pasayishiga sabab bo'ladi.

Sigirlarda modda almashinuvi buzilishlarini oldini olishda to'laqimmatli oziqlantirish, katta qorinda oziqalar hazmlanishini yaxshilash orqali yangi tuqqan sigirlarda akusher-ginekologik kasalliklarni, yangi tug'ilgan buzoqlarda oshqozon-ichak kasalliklarini kamaytirishga erishish mumkin.

A.M.CHomaev va boshqalar (2003) yozishicha, sigirlar tuqqandan keyin bachadonining tiklanish jarayoni uchun 50-60 kun ketadi. SHuning uchun ular sigirlar tuqqandan keyin birinchi oy mobaynida qochirish yuqori samara bermaydi, qochirishni ikkinchi oyda amalga oshirish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelganlar. Mualliflarning fikricha, 4000 kg sut mahsuldorligiga ega sigirlarni tuqqandan keyin taxminan 40-kunlarda qochirish eng qulay muddat hisoblanadi.

3. XUSUSIY TADQIQOTLAR

3.1. Xo'jalikning iqtisodiy tavsifi

Tadqiqotlarning tajriba qismi 2014 - 2015 yillar davomida Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi «Jura» qoramolchilik fermer xo'jaligi sharoitida o'tkazildi. Xo'jalik tuman markazidan 14 km uzoqlikda joylashgan.

Xo'jalikda erlari asosan bo'z tuproqlardan iborat. Xo'jalikning yer maydoni 138 gektardan iborat. Xo'jalikning yer maydoni 2010 yilda 60 gektarga ko'paytirilgan. Bu fermer xo'jaliklarini kattalashtirish va optimallashtirish asosida amalga oshirilgan bo'lib xo'jalik erlaridan asosan mollar uchun oziqa etishtirish maqsadida foydalaniladi.

Xo'jalikning asosiy tarmog'i nasilchilik yunalishidagi qoramolchilik hisoblanib, dehqonchilik va meva-sabzavodchilik qo'shimcha tarmoqlar hisoblanadi. Bundan tashqari, yordamchi tarmoqlar, traktor va avtomashinalarni ta'mirlash, texnikalardan «Enisiy», KSK-100 kombaynlari, MTZ-80, e-28

traktorlari, erga ishlov berish mexanizmlari, tegirmon, KDU-10 oziqa maydalagichlari mavvud. Xo‘jalikda chorvachilikni rivojlantirish uchun etarli daravada sharoit yaratilgan. Xo‘jalikda beda maydoni bo‘lib, senaj va pichan tayyorlanadi va chorva mollarining talabini qondirish darajasida hosil etishtiriladi.

1-jadval

Xo‘jalikning yer fondi, ga

Ko‘rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil
Umumiy er maydoni	138	138	138
Qishloq xo‘jalik erlari	134	134	134
Sug‘oriladigan erlar	134	134	134
Ko‘p yillik daraxtzorlar	3	3	3

Xo‘jalik asosan paxta va g‘allachilikka ixtisoslashgan bo‘lib, chorvachilik va bog‘dorchilik tarmoqlari bilan shug‘ullanadi. Fermer xo‘jaligining tabiiy-iqlim va tuproq sharoiti qishloq xo‘jalik ekinlarini o‘stirish va rivojlantirish uchun qulaydir.

Xo‘jalikka 2010 yilda Ukrainadan 20 bosh qora-ola zotli g‘unoinlar keltirilgan bo‘lib, bugungi kunda ikki martadan bola olindi. Ularga kerakli oziqa yetishtirish uchun er ajratilgan. Ularning sut mahsuldorligi bir kunda o‘rtacha 20-22 litrni, sutning yog‘liligi 3,9-4,0% ni tashkil etmoqda. Bu xo‘jalikda chorvachilikka e‘tiborning kuchayishidan dalolat beradi.

Oziqa etishtirish uchun ajratilgan erlarga silos uchun makkajo‘xori, ko‘k beda massasi va senaj etishtirish uchun beda ekiladi.

Qishloq xo‘jalik ekinlari maydoni va ularning hosildorligi

Ekin turlari	2014 yil		2015 yil	
	ga	Hosildorlik, s	ga	Hosildorlik, s
Don ekinlari	40	48	40	68
Makkajo‘xori:Don uchun	8	57	8	68
Silos uchun	18	300	18	310
Beda ko‘k o‘t uchun	6	280	6	280
Pichan uchun	2	130	2	130

Keyingi yillarda don ekinlari hosildorligi 20 s oshgan. Don uchun makkajo‘xori hosildorligi 11 sentnerga oshgan. Bu xo‘jalikda erlarning meliorativ holati va hosildorligi yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi. Hosildorlikni yanada ko‘paytirish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun agrotexnika tadbirlarini o‘z vaqtida sifatli o‘tkazish, mahalliy va madaniy o‘g‘itlardan samarali foydalanish zarur.

Xo‘jalikda o‘y hayvonlaridan qoramollar va qo‘ylar urchitiladi.

Xo‘jalikda chorva mollarini sonining o‘zgarishi, bosh

Ko‘rsatkichlar	2014 yil	2015 yil
Jami qoramollar	289	325
SHundan sigirlar	92	105

Keyingi yillarda qoramollari soni 36 boshga, shundan sigirlar soni 13 boshga ko‘paygan. Mollar sonining ko‘payishi fermer xo‘jaliklarining tashkil etilishi yaxshi samara berayotganligini ko‘rsatadi.

3.2. Tadqiqotlar ob'ekti va uslublari

Sigirlarda bachadon kasalliklarning tarqalishi, sabablari va rivojlanish xususiyatlari, klinik belgilari va qondagi morfobiokimyoviy o'zgarishlarni hamda ushbu kasalliklarning oqibatlarini o'rganish maqsadida sog'in sigirlar va urug'lantirish yoshidagi tanalarda dispanser tadqiqotlar o'tkazilib, xo'jalikning chorvachilik bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlari, hayvonlarni saqlash va oziqlantirish sharoitlari, sut mahsuldorligi, buzoq olish, ularning tug'ilgandagi tana vaznini tahlil qilish asosida poda sindromatikasi o'rganildi.

Dispanser tekshirishlar sigirlar tug'ishining 1-oyidan boshlanib, ularning urug'lantirilishigacha bo'lgan davrda har 20 kunda bir marta o'tkazildi. Ginekologik kasalliklar Bilan kasallangan sigirlardan «o'xshash juftliklar» tamoyili (I.P.Kondraxon, 1980) asosida «etalon» guruhlar tashkil etilib, ularda klinik-fiziologik status va qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari aniqlandi.

Sigirlarning oziqa rasionlari tarkibi va to'yimligi, tarkibidagi hazmlanuvchi protein, qand, karotin, kalsiy, fosfor, kletchatka miqdorlari bo'yicha zootexnikaviy tahlil qilinib, oziqlantirish me'yorlari bilan taqqoslash asosida hayvonlar organizmi ehtiyojlarining qondirilish darajasi o'rganildi. Xo'jalikdagi sigirlarning klinik holati aniqlanib, bunda umumiy holati, ishtaha, semizlik darajasi, tashqi ta'sirotlarga javob reaksiyasiga e'tibor berildi.

Umumiy qabul qilingan klinik tekshirish usullari bilan shilliq pardalar, teri va teri qoplamasi, harakat a'zolarining holati, oshqozon oldi bo'limlarining 2 daqiqadagi harakati, tana harorati, 1 daqiqadagi yurak urishi va nafas soni, qindan ekssudat oqishi va uning xarakteri aniqlandi.

Sigirlar tuqqandan keyin va har 10 kunda bir marta klinik tekshirishlar, qin orqali va rektal tekshirishlar yordamida bachadonning holati va uning o'z holiga kelishi (subinvalyusiyasi) aniqlanib borildi. Sigirlarda kuyga kelish va jinsiy siklning kechishi o'rganildi.

Tashqi tekshirishlar bilan jinsiy lablar halati, undan shilimshiq suyuqlik oqishi, uning rangi, hidi va konsistensiyasi, shilliq pardalarning rangi aniqlandi.

Qin oynasi yordamida qin orqali tekshirish bilan qin shilliq pardasining holati, bachadon buyinchasining holati, uning yopilganlik darajasi, bachadondan ajralayotgan suyuqlikning xarakteri o'rganildi.

To'g'ri ichak orqali tekshirish bilan bachadonning kattaligi, shoxlarining holati, unda suyuqlik borligi, bachadon devorining qisqarishi, hamda tuxumdonlar holati, ularda follikulalar yoki sariq tana borligi aniqlandi. Sigirlar davolashni boshlashdan oldin va har 10 kunda bir marta tekshirishlardan o'tkazilib turildi.

Sigirlardan olingan qon na'munalarida eritrositlar va leykositlar soni (Goryaev sanoq to'rida), gemoglobin (Gemoglobin-sianidli usul), glyukoza (Ortotoluidin bilan rangli reaksiya), qon zardobida umumiy oqsil (Refraktometrik usul), leykogramma (Romanovski-Gimza usulida bo'yalgan surtmalarda) aniqlandi.

Mikroorganizmlarning antibiotiklarga sezuvchanligi ekmadagi antibiotiklar disklari atrofida mikoflora o'smagan zona kattaligini aniqlash usulida aniqlandi.

Sigirlarda ginekologik kasalliklarni davolashni takomillashtirishda davolash vositalarini tanlash, qo'llanilgan preparatlarning terapevtik samaradorligini aniqlash maqsadida, ularning sigirlar klinik-fiziologik holati, qonning ayrim morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari va fiziologik holatiga ta'sirini o'rganish, davolash vositalarining terapevtik va iqtisodiy samaradorligini aniqlash maqsadida davolash tajribalari o'tkazildi.

3.3. Sigirlarni parvarishlash va oziqlantirishning tahlili.

Sigirlarda endometritlarning etiologiyasi ko'p jihatdan hayvonlarni saqlash sharoitlari, yo'ldoshning ushlanishi kasalligi, qinning yallig'lanishi, tabiiy va suniiy urug'lantirishda har-xil mikroorganizmlar bilan zararlanishi hamda oziqlantirish tipi, rasionlarning to'yimlilik, hayvonlar organizmining biologik faol va mineral moddalar bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq.

Sigirlar organizmining to'yimli moddalar va shuningdek, vitaminlar hamda makro va mikroelementlarga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilish darajasini o'rganish maqsadida xo'jaliklarda sigirlar rasionlari tarkibi va to'yimligi bo'yicha zootexnikaviy tahlil qilindi.

Fermer xo'jaligida sigirlar rasioni asosan silos - konsentrat tipida ekanligi bilan xarakterlanib, oziqlantirish me'yorlariga nisbatan 2,29 oziqa birligining etishmasligi qayd etildi. Rasiondagi hazmlanuvchi protien 911,8 grammni, u bilan ta'minlanish esa 105,8 foizni tashkil etdi.

Sigirlar rasionning asosiy qismini tashkil etadigan paxta sheluxasi va shroti tarkibida hazmlanuvchi proteinning ko'p bo'lishi (o'rtacha 17-54 %) bilan bir qatorda bu oziqalar tarkibida hayvonlar uchun zaharli hisoblangan gossipol alkaloidining konsentrasiyasi 1 kg quruq moddada 0.020-0,046% gacha etishi mumkin. SHuning uchun hayvonlarga uzoq muddat paxta sheluxasi va shroti berilishi ularning zaharlanishi hamda bepushtliklariga sabab bo'ladi (Q.N.Norboev va b., 2007).

Sigirlar organizmining engil hazmlanuvchi uglevodlarga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilishi 46,4 foizni tashkil etdi, ya'ni rasiondagi qand miqdorining me'yorlardan 364,4 grammga kamligi aniqlandi. Qand-oqsil nisbati me'yordagi 0,8-1,2 o'rniga 0,34 ni tashkil etdi.

Sigirlar rasionidagi kletchatkaning miqdori me'yordagi 2850 g o'rniga 2726 grammni, u bilan sigirlar organizmining ta'minlanishi 95,6 foizni, karotinning miqdori 168,8 mg.ni, u bilan ta'minlanish - 43,8 foizni tashkil etdi. Rasionda karotinning tanqisligi retinolning organizmda endogen sintezi va zahiralarining kamayishi va oqibatda modda almashinuvlarining izdan chiqishi, qisir qolish hamda homilaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xo'jalikda sigirlar rasionining makroelementli tarkibi oziqlantirish me'yorlariga nisbatan kalsiyning 5,49 grammga va fosforning 6,3 grammga etishmasligi bilan xarakterlandi. Sigirlarning kalsiy bilan ta'minlanishi 92,1% va

fosfor bilan ta'minlanishi - 84,2 foizni tashkil etdi. Fosforning kalsiyga nisbati 0,52 ga teng ekanligi aniqlandi.

Sog'in sigirlarning oziqlantirilishini tahlil qilish bilan shunday xulosaga keldikki, rasionlar tipi, tarkibi va to'yimliliği bo'yicha sigirlar organizmining to'yimli moddalar, biologik faol moddalar, makro va mikroelementlarga nisbatan ehtiyojlarini to'liq qondirmaydi. Rasionlarning oqsilli va energetik jihatdan nomutanosibligi, qand-oqsil va fosfor-kalsiy nisbatlarining pastligi, oziqalar tarkibidagi makro va mikroelementlar miqdorining oziqlantirish me'yorlariga nisbatan kamligi sigirlarda bepushliklarning kelib chiqishida asosiy etiologik omillar hisoblanadi. Sigirlarni yil davomida bir joyda saqlanishi, gipodinamiya va gipoinsolyasiya ularda bepustliklarning kelib chiqishi va modda almashinuvlarining buzilishlarini yanada kuchayishiga olib keladi.

4-jadval.

Sog'in sigirlar rasioni.

Oziqalar	Miqdori, kg	Oz. Birligi	Hazmlanuvchi, protein, g	Qand, g	Karotin, Mg	Kalsiy, g	Fosfor, g	Kletchatka, g
Makka silosi	12	2,55	108	318	158,4	40,8	8,76	976
Bug'doy smoni	3	0,54	10,8	1,58	10,6	5,61	6,3	473
Paxta sheluxasi	3	0,64	63,0	-	-	13,2	3,3	1020
Paxta shroti	2	1,98	730	-	-	5,2	15,4	256,0
Rasionda	20	5,71	911,8	319,6	169	64,51	33,7	2726
Me'yor bo'yicha talab etiladi		8,0	840	680	385	70	40	2850
Farqi, +,-		-2,29	+71,8	-360,5	-216	-5,49	-6,3	-123,0

Qand-oqsil nisbati -0,34; fosfor- kalsiy nisbati - 0,52.

Sog'in sigirlarning oziqlantirilishini tahlil qilish bilan shunday xulosaga keldikki, ratsionlar tipi, tarkibi va to'yimliliği bo'yicha sigirlar organizmining to'yimli moddalar, biologik faol moddalar, mikroelementlarga nisbatan ehtiyojlarini to'liq qondirmaydi. Ratsionlarning oqsilli va energetik jihatdan nomutanosibliği sigirlarda modda almashinuvlarining buzilishi, tabiiy rezistentlikni pasayishi hamda bachadon kasalliklarini kelib chiqishida asosiy etiologik omillar hisoblanadi.

3.4 Klinik, gematologik va ginekologik tekshirish natijalari

Xo'jalikdagi sigirlarni klinik-ginekologik tekshirish bilan bachadonning yallig'lanish xarakteri o'rganilganda kataral-yiringli endometrit - 55%ni, kataral endometrit – 40 %, fibrinli endometrit - 10% va nekrotik endometritlar - 5%ni tashkil etdi.

Tajribalarimizni boshlashdan oldin tajriba va nazorat guruhlaridagi ginekologik kasalliklar bilan kasallangan sigirlarning klinik-fiziologik ko'rsatkichlari umumiy holsizlanish, tanna haroratining 40-41S⁰ ga ko'tarilishi, tashqi tasirlarga befarqlik, ishtahaning pasayishi, oshqozon oldi bo'limlarining gipotoniyasi, shilliq pardalarning oqarishi (anemiya), qindan kataral-yiringli ekssudat oqishi kabi klinik belgilar bilan tavsiflangan bo'lsa, tajribalarning oxiriga kelib faqat nazorat guruhidagi sigirlarda klinik-fiziologik ko'rsatkichlarning o'zgarishi kuzatildi.

Kataral-yiringli endometrit bilan kasallangan sigirlarda tana haroratini o'rtacha 0,5-1⁰C, yurak urishi sonini bir daqiqada 10-15 martagacha ortishi, umumiy holsizlanish, ishtahaning pasayishi, oshqozon oldi bo'limlari qisqarishlarining kamayishi gipotoniyasi, shilliq pardalarning oqarishi (anemiya), qindan kataral-yiringli ekssudat oqishi qayd etildi. Bu ko'rsatkichlar o'tkir kataral-yiringli endometritlar paytida tana haroratining ko'tarilish va yurak urishi sonining ortishi bilan kechishi ma'lum bo'ladi.

Tajriba va nazorat guruhidagi sigirlar qonining ayrim morfofiokimyoviy ko'rsatkichlari tajribalarni boshlashdan oldin bir xil ko'rsatkichlar bilan xarakterlangan bo'lsa, nazorat guruhidagi sigirlarda bu ko'rsatkichlarning tajribalar oxirigacha yomonlashib borishi qayd etildi.

5-jadval.

Endometrit bilan kasallangan sigirlar gematologik ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Endometrit bilan kasallangan Sigirlar	
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Gemoglobin	g/l	102±0,12	112±0,10
Eritrositlar	10 ¹² /l	6,85±0,5	8,46±1,5
Leykositlar	10 ⁹ /l	10,56±0,14	6,76±0,12
Eozinofillar	%	4,8±0,5	2,3±0,6
Limfositlar	%	63,0±2,5	40,6±0,26
Monositlar	%	2,5±0,27	2,3±0,3
Tayoqchayadroli neytrofillar	%	2,0±1,3	8,4±2,3
Segmentyadroli neytrofillar	%	27,1±1,3	44,8±1,4
Yosh neytrofillar	%	0	1,1±0,5
Umumiy oqsil	g/l	60,8±0,8	76,5±0,09

Nazorat va tajriba guruhlarida davolanayotgan guruhlardagi kataral-yiringli endometritlar bilan kasallangan sigirlar gematologik ko'rsatkichlari 5-jadvalda keltirilgan. 5-jadvaldan ma'lumki, davolashning oxiriga kelib nazorat guruhida davolangan sigirlarga nisbatan tajriba guruhida yangi variantda davolangan sigirlarda gemoglobinni o'rtacha 10 g/l ga, eritrositlarni - 1,61 mln/mkl ga ko'payishi, leykositlarni 3,80 ming/mkl ga kamayishi va leykoformula ko'rsatkichlarining fiziologik me'yorlar darajasigacha yaxshilanishi xarakterli

bo'ldi. Nazorat guruhidagi sigirlarda esa gemoglobin, eritrositlar soni, umumiy oqsil miqdorini kamayishi, leykoformula limfositlar, eozinofillar foizining ortishi va tayoqchayadroli, segmentyadroli neytrofillar va yosh neytrofillar foizining kamayishi hisobiga yadroni chapga siljishi bilan xarakterlandi.

Tajriba va nazorat guruhda davolangan sigirlarda davolashning samaradorligi 1-guruhda 100% va 2-guruhda 66.7%ni tashkil etdi, ya'ni tajriba guruhida davolash samaradorligi 33.3%ga yuqori bo'ldi. Tajriba guruhidagi sigirlarning barchasi sog'ayib, davolash kursi o'rtacha 4 kunni tashkil etdi. Nazorat guruhida sigirlarning to'liq sog'ayishi kuzatilmadan, davolash samaradorligi 66.7%ni, davolash kursi o'rtacha 6 kunni tashkil etdi (6-jadval).

6-jadval.

Ginekologik kasalliklarni davolash usullarining samaradorligi

Guruhlar	Hayvonlar soni	Davolash kurslari soni	Birinchi marta davolash samaradorligi %	Bepushtlik-ning davomiyligi, kun
Tajriba	3	1,1	100	94,5
Nazorat	3	2,4	66.7	153,4

Tajriba guruhidagi sigirlarda tajribalarning oxiriga kelib tajribalarning boshidagi ko'rsatkichlarga nisbatan klinik fiziologik statusning va qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlarning yaxshilanishini qo'llanilgan preparatlarning organizmga ijobiy ta'siri bilan izohlaymiz.

Qo'llanilgan preparatining sut mahsuldorligiga ta'sirini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhidagi sigirlardan kunlik sog'ib olinadigan sut va uning yog'lilik darajasi sigirlarning tuqqandan keyingi 30- kunidan boshlab, 10 kun davomida o'rganildi.

Tajribadagi sigirlar sut maxsuldorligi ko'rsatkichlari

Guruhlar	Bir kunda sog'ib olingan sut, kg	Nazorat guruhiga nisbatan, %	Sutning o'rtacha yog'liligi, %	10 kunda sog'ib olingan sut, kg
I tajriba	14,5± 0,27	26,9	4,0	145±2,18
II nazorat	10,6±0,14	100	3,7	106±1,17

«Jura» fermer xo'jaligida tajriba guruhidagi sigirlarda sut mahsuldorligining sezilarli darajada ortishi qayd etildi, ya'ni nazorat guruhiga nisbatan bir kunlik sut sog'ib olish bir bosh sigir hisobiga o'rtacha 3,9 kg. ga (26,9%) yuqori bo'ldi (7-jadval).

Bu ko'rsatkichlar qullanilgan preparatlarning sigirlar sut mahsuldorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishidan, hamda hayvonlarni bir joyda bog'lab boqishda preparatini qo'llashning iqtisodiy samaradorligi yanada yuqori bo'lishidan dalolat beradi.

3.5 Sigirlarda bachadon kasalliklari (metritlarning) davolash usullari

Xo'jalikda bachadon kasalliklari bilan kasallangan sigirlar ajratilib, ularning davolash maqsadida turli davolash muolajalar ta'siri taqqoslab o'rganildi. Ilmiy tajriba uchun xo'jalikda bachadon kasalliklari bilan kasallangan 6 bosh sigirlarda olib borildi. Ularning saqlash va oziqlantirish sharoitlari tenglashtirildi. Ular 3 boshdan 2 guruhga ajratildi. Har bir sigir bachadon kasalligining bosqichlari, diagnostikasi va sigirlarning umumiy xolati aniqlandi. Har bir guruh sigirlarda davolash usullari kasallikning darajasiga qarab belgilandi

Tajriba sxemasi

7-jadval

№	Guruhlar	Hayvonlar soni	Davolash muolajalari
1	I guruh Nazorat	3	a) Metranidazol antibiotigidan 100 ml kuniga bir marta vena qon tomiriga yuborildi. b) Limoksin 200 antibiotigidan 20kg tana vazniga 1ml xisobida kuniga bir marta muskul ichiga yuborildi. s) Oksitosinning 1,5%-li eritmasidan 5 ml (30-40 XB dozada) muskul ichiga yuborildi d) bachadon tuzli-sodali eritma (10 g osh tuzi, 20 g natriy gidrokarbonat, 1 l qaynatilgan suv) bilan bachadoni yuvildi; v) yodopen suppozitoriysidan 1 dona bachadoga tashlandi.
2	II guruh Tajriba	3	a) Butasal 100 preparatidan 15 ml kuniga bir marta vena qon tomiriga yuborildi. b)bachadon tuzli-sodali eritma (10 g osh tuzi, 20 g natriy gidrokarbonat, 1 l qaynatilgan suv) bilan bachadoni yuvildi; v) yodopen suppozitoriysidan 1 dona bachadoga tashlandi.

1-Birinchi nazorat guruhidagi sigirlar quyidagicha davolandi:

- Metranidazol antibiotigidan 100 ml kuniga bir marta vena qon tomiriga yuborildi.
- Limoksin 200 antibiotigidan 20kg tana vazniga 1ml xisobida kuniga bir marta muskul ichiga yuborildi
- Oksitosinning 1,5%-li eritmasidan 5 ml (30-40 XB dozada) muskul ichiga yuborildi
- bachadon tuzli-sodali eritma (10 g osh tuzi, 20 g natriy gidrokarbonat, 1 l qaynatilgan suv) bilan bachadoni yuvildi
- yodopen suppozitoriysidan 1 dona bachadoga tashlandi.

Nazorat guruhidagi sigirlar davolash muolajalari 6 kuni tashkil etdi

2-Tajriba guruhidagi endometrit bilan kasallangan sigirlarga qo'shimcha davolashda

- a) Butasal 100 preparatidan 15 ml kuniga bir marta vena qon tomiriga yuborildi.
- b) bachadon tuzli-sodali eritma (10 g osh tuzi, 20 g natriy gidrokarbonat, 1 l qaynatilgan suv) bilan bachadoni yuvildi;
- v) yodopen suppozitoriysidan 1 dona bachadoga tashlandi.

Tajriba guruhidagi sigirlar davolash muolajalari 4 kuni tashkil etdi

Sigirlarda bachadon kasalliklari (metritlarning) davolash bo'yicha tajribalar natijalari

Tajribalarimizdan oldin natija nazorat va tajriba guruhlaridagi sigirlar endometritlar bilan kasallangan sigirlarning klinik-fiziologik ko'rsatkichlari diyarli bir xil guruhidagi sigirlarda klinik-fiziologik ko'rsatkichlarning o'zgarishi kuzatildi.

Nazorat guruhidagi sigirlarda 3 bosh sigirlardan 1 boshida jinsiy yo'llardan kam-kam muqdorda yarangli eksudat kelib turdi, 2 bosh sigirlarda umumiy axvoli

yaxshilanib bordi davolash muolajasi 6 kuni tashkil etdib davolash samaradorligi 66,7% tashkil etdi.

Tajriba guruhidagi sigirlar davolash muolajalar 4 kuni tashkil etdib sigirlarni umumiy axvoli yaxshilandi davolash samaradorligi 100% tashkil etdi.

Nazorat va tajriba guruhda davolangan sigirlarda davolashning samaradorligi 1-guruhda 66,7% ni va 2-guruhda 100% ni tashkil etdi, ya'ni tajriba guruhida davolash samaradorligi 33,3%ga yuqori bo'ldi.

Nazorat guruhida sigirlarning to'liq sog'ayishi kuzatilmasdan, davolash samaradorligi 66,7% ni, davolash kursi o'rtacha 6 kunni tashkil etdi bo'lsa.

Tajriba guruhidagi sigirlarning barchasi sog'ayib, davolash samaradorligi 100% ni, davolash kursi o'rtacha 4 kunni tashkil etdi.

Sigirlarda endometritlarni davolash muolajasi nazorat guruhigi sigirlarni davolash muolajasi 6 kunni tashkil etdi, tajriba guruhidagi sigirlarni davolash muolajasi 4 kunni tashkil etdi va shu nersa malum bo'ldiki nazorat guruhigiga nisbattan tajriba guruhidagi davolash muolajasi 2 kunga qisqarganligi va davolash samaradorligi xam nazorat guruhiga nisbattan tajriba guruhidagi davolash samaradorligi 33,3% ga oshganligi malum bo'ldi.

.

Tashqi tekshirishlar bilan jinsiy lablar halati, undan shilimshiq suyuqlik oqishi, uning rangi, hidi va konsistensiyasi, shilliq pardalarning rangi aniqlandi.

Qin oynasi yordamida qin orqali tekshirish bilan qin shilliq pardasining holati, bachadon buyinchasining holati, uning yopilganlik darajasi, bachadondan ajralayotgan suyuqlikning xarakteri o'rganildi.

To'g'ri ichak orqali tekshirish bilan bachadonning kattaligi, shoxlarining holati, unda suyuqlik borligi, bachadon devorining qisqarishi, hamda tuxumdonlar holati, ularda follikulalar yoki sariq tana borligi aniqlandi. Sigirlar davolashni boshlashdan oldin va har 10 kunda bir marta tekshirishlardan o'tkazilib turildi.

Davolash usullarining terapevtik samaradorligi

Guruhlar	Hayvonlar soni	Davolash kursi soni	Birinchi marta davolash samaradorligi %	Bepushtlikning davomiyligi, kun
Nazorat	3	6	66.7	96
Tajriba	3	4	100	35

Tajriba guruhidagi sigirlarda tajribalarning oxiriga kelib klinik fiziologik statusning va qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlarning yaxshilanishini qo'llanilgan preparatlarning organizmga ijobiy ta'siri bilan izohlaymiz.

Davolash muolajalari tugagandan so'ng qo'llanilgan preparatining sut maxsuldorligiga ta'sirini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhidagi sigirlardan kunlik sog'ib olinadigan sut va uning yog'lilik darajasi sigirlarning tuqqandan keyingi 30- kundan boshlab, 10 kun davomida o'rganildi.

3.6. ISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.

Sigirlarda yashirin endometrit kasalligining davolash tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda «Veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash» - deb nomlangan (T.Abduraxmonov, R.B.Davlatov, 2000) uslubiy qo'llanmadan foydalanildi. Iqtisodiy samaradorliklarni sifatida iqtisodiy samara (Is) va veterinariya tadbirlari uchun sarflangan har 1 so'm harajat hisobiga olingan iqtisodiy foyda (Ss) aniqlandi.

Mahsulotlarning xarid narxlari o'rtacha bozor narxida olindi. Davolash tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda birlamchi ma'lumotlar qo'yidagi jadvalda keltirilgan.

10-jadval.

№	Ko'rsatkichlar	Kundalik variant	Tavsiya etilayotgan variant
1.	Guruhdagi hayvonlar soni	3	3
2.	1 kg tana vaznining xarid narxi	18000	18000
3.	Bir sigirdan kunlik sut sog'ib olish	8.2	10.4
4.	1 kg sutning xarid narxi	1000	1000
5.	Veterinariya tadbirlari uchun harajat (bir boshiga so'm)	(6 kunlik) 52000	(4 kunlik) 30400

Endometritlar paytida o'lim koeffitsenti aniqlanmaganligi tufayli guruhli profilaktik davolash samaradorligini hisoblashda faqat qo'shimcha olingan mahsulotlarning tannarxi va veterinariya tadbirlari uchun sarflangan harajatlar hisobga olindi.

Tajribalar uchun har birida 3 boshdan endometritlar bilan kasallangan sog'in sigirlar bo'lgan ikkita guruh tashkil etilib, birinchi tajriba guruhidagi sigirlar quyidagicha davolandi:

a) Butasal 100 preparatidan 15 ml kuniga bir marta vena qon tomiriga yuborildi.

b) bachadon tuzli-sodali eritma (10 g osh tuzi, 20 g natriy gidrokarbonat, 1 l qaynatilgan suv) bilan bachadoni yuvildi;

v) yodopen suppozitoriysidan 1 dona bachadoga tashlandi.

Tajriba guruhidagi sigirlar davolash muolajalari 4 kuni tashkil etdi

2-nazorat guruhidagi endometritlar bilan kasallangan sigirlar xo'jalikda joriy etilgan usulda quyidagicha davolandi:

- Metranidazol antibiotigidan 100 ml kuniga bir marta vena qon tomiriga yuborildi.

- Limoksin 200 antibiotigidan 20kg tana vazniga 1ml xisobida kuniga bir marta muskul ichiga yuborildi

- Oksitosinning 1,5%-li eritmasidan 5 ml (30-40 XB dozada) muskul ichiga yuborildi

- bachadon tuzli-sodali eritma (10 g osh tuzi, 20 g natriy gidrokarbonat, 1 l qaynatilgan suv) bilan bachadoni yuvildi

- yodopen suppozitoriysidan 1 dona bachadoga tashlandi.

Nazorat guruhidagi sigirlar davolash muolajalari 6 kuni tashkil etdi

Oldi olingan zararni hisoblashda tajriba guruhidagi (0%) va nazorat guruhidagi (66.7%) sigirlarning bepushtlik darajasi va shuningdek, bir bosh sigirga iqtisodiy zarar koefitsienti (Kz) hisobga olindi.

Bir bosh sigirga iqtisodiy zarar koefitsienti (Kz) miqdori quyidagicha aniqlandi.

Tajriba guruhidagi sigirlardan olingan sut $14,5 \text{ kg} \times 1000 \text{ so'm} = 14500 \text{ so'm}$, nazorat guruhidagi sigirlardan sog'ib olingan sutning tannarxi $10,6 \text{ kg} \times 1000 \text{ so'm} = 10600 \text{ so'm}$ ni tashkil etdi, ya'ni bir bosh sigir hisobiga iqtisodiy zarar: $Kz = 14500 - 10600 = 3900 \text{ so'm}$.

Nazorat va tajriba guruhda davolangan sigirlarda davolashning samaradorligi 1-guruhda 33%ni va 2-guruhda 100% ni tashkil etdi, ya'ni tajriba guruhida davolash samaradorligi 66.7%ga yuqori bo'ldi.

Nazorat guruhida sigirlarning to'liq sog'ayishi kuzatilmasdan, davolash samaradorligi 33.3%ni, davolash kursi o'rtacha 6 kunni tashkil etdi Tajriba guruhidagi sigirlarning barchasi sog'ayib sigirlarda jinsiy moyillik kuzatilib urug'lantirildi va urug'lantirish samaradorligi 100% tashkil etdi, davolash kursi o'rtacha 4 kunni tashkil etdi.

Sigirlarda endometritlarni davolash muolajasi nazorat guruhigi sigirlarni davolash muolajasi 6 kunni tashkil eti, tajriba guruhidagi sigirlarni davolash muolajasi 4 kunni tashkil etdi va shu nersa malum bo'ldiki nazorat guruhigiga nisbattan tajriba guruhidagi davolash muolajasi 2 kunga qisqarganligi va davolash samaradorligi xam nazorat guruhiga nisbattan tajriba guruhidagi davolash samaradorligi 66.7% ga oshganligi malum bo'ldi..

Kasallanish koefitsenti quyidagicha: $Kk = 4:5 = 0,70$ yoki $3 \times 100:5 = 60\%$

Kasallikdan keladigan haqiqiy zararni quyidagicha aniqladik:

Tajriba guruhidagi hayvonlarning 0 foizi va nazorat guruhidagi sigirlarning 66.7 foizi bepushtlik tashkil etdi.

$66.7-0=66.7\%$, 2 bosh sigir uchun: $X_z = 2 \times 12400 = 24800$ so'm

2.Tajribalarni o'tkazish uchun veterinariya xarajatlari (V_x) quyidagicha bo'ldi: bir boshga bir kunda Butasal 100 15 ml (4500 sum) tuzli-sodali eritma 10 g osh tuzi, 20 g natriy gidrokarbonat, (600 sum)

yodopen suppozitoriysidan 1 dona (2500 sum) veterinariya harajatlari (V_x) sarflandi.

2.Veterinariya vrachi tomonidan bajarilgan xizmatlar 4 kun davomida bir bosh sigir hisobiga 30400 so'mni tashkil etadi.

2.Demak, umumiy veterinariya harajatlari $V_x=30400s+6000s=36400$ so'mni tashkil etadi.

Olingan foyda sut mahsuldorligi hisobiga: $14,5-10,6=3,9$ litr bir kunda X 60 kun = 234 litr $\times$ 1000 so'm = 234000 so'm bir bosh sigirdan foyda olingan.

Sigirlarning yashirin endometritni davolashda iqtisodiy samaradorligini (I_s) quyidagicha aniqladik:

$I_s=Z_{oo}-V_x$ bunda,

Z_{oo} - veterinariya tadbirlari natijasida oldi olingan zarar (so'm).

V_x - veterinariya tadbirlari uchun qilingan harajat (so'm)

$I_s = 234000 - 30400 = 203600$ so'm

Veterinariya tadbirlari uchun sarflangan 1 so'm harajat hisobiga iqtisodiy samaradorligini (S_s) quyidagicha aniqladik:

$S_s = \frac{I_s}{V_x}$; bunda

I_s - iqtisodiy samaradorlik (so'm)

V_x - veterinariya harajatlari (V_x)

$S_s = \frac{234000}{30400} = 7,7$ so'm

Tajribalarni o'tkazish davomida guruhli davolash tadbirlari xo'jalikdagi 6 bosh sigirlarda o'tkazildi. Demak, xo'jalik bo'yicha iqtisodiy samara yig'indisi $264400 \text{ so'm} \times 6 \text{ bosh} = 264400 \text{ so'mni}$ tashkil etadi.

4 VETERINARIYA ISHINI TASHKIL ETISH VA UNING IQTISODI.

Respublikamizda mustaqillikka erishish bilan barcha sohalaridagi kabi veterinariya ishini tashkil etish va bu tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga katta e'tibor berilmoqda, 1993 yilda «Veterinariya to'g'risidagi qonun»ning qabul qilinishi buning yaqqol isbotidir, bu qonun 5 ta bo'lim, 23 ta moddadan iborat.

Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanida veterinariya tadbirlari rejali ravishda olib boriladi. Tuman veterinariya bo'limida bo'lim boshlig'i, uning muovini, vrach epizootolog, vrach terapevt, apteka mudiri, hisobchi va veterinariya uchastkalarida uchastka boshliqlari, vet texniklar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Tumanda veterinariya laboratoriyasi mavjud bo'lib, uning serologiya, bakteriologiya va parazitologiya, ximiotoksiko-logiya, virusologiya bo'limlari mavjud. Tumanda veterinariya inspektori vazifasini tuman veterinariya bo'lim boshlig'i bajaradi.

Bulardan tashqari bozorlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini vetsanekspertizasi bo'limlari mavjud bo'lib, tuman veterinariya xizmati (bo'yicha) Davlat byudjeti tomonidan, hamda mahalliy byudjetlar hisobiga mablag'lar bilan ta'minlanadi.

Veterinariya tashkilotlari va fermalarda qo'yidagi jurnallar yuritiladi:

1. Kasal hayvonlarni qayd etish jurnali (SHakl № 1-vet).
2. Epizootiyaga qarshi tadbirlarni qayd etish jurnali (shakl № 2-vet)
3. Tuman epizootik holatini qayd etish jurnali (shakl № 3 vet).

Pastdarg'om tuman vetsanekspertiza laboratoriyada esa:

1. Go'sht, baliq, tuxum VSE (shakl № 23-vet)
2. Sut va sut mahsulotlari VSE (shakl № 24-vet).

3. O‘simlik ozuqa maxsulotlari VSE (shakl № 25-vet).

4. Asal VSE (shakl № 26-vet)

Veterinariya laboratoriyasida bakteriologik tekshirishlar jurnali (SHakl № 12-vet).

1. Virusologik tekshirishlar jurnali (shakl № 13-vet)

2. Qonni serologik tekshirish jurnali (shakl № 14 –vet).

3. Teri va junni kuydirgi kasalligiga tekshirish jurnali (shakl №7-vet).

4. Hayvonlarni parazitlar kasalliklarga tekshirish jurnali shakl № 18-vet va boshqalar yuritiladi.

Tuman veterinariya bo‘limi oyiga 1 marta viloyat veterinariya boshqarmasiga qo‘yidagi hisobotlarni topshiradi:

1 shakl. № 1 -vet «hayvonlarni yuqumli kasalliklari to‘g‘risida hisobot» (oylik, chorakda)

2 shakl. № 2 -vet «hayvonlarni yuqumsiz kasalliklari to‘g‘risida» hisobot (har yarim yilda bir marta)

3 shakl. №3-vet «Baliq kasalliklari tug‘risida xisobot» (yiliga bir marta)

4-shakl. №4-vet «Veterinariya laboratoriyalari ishi to‘g‘risidagi xisobot (yiliga bir marta)

5-shakl. №5-vet Suyish punktlari va sanitariya euspertiza laboratoriyalarining ishi to‘g‘risida xisobot» (yarim yilda bir marta)

«Jo‘ra» fermer xo‘jaligida idoraviy veterinariya xizmati joriy etilgan bo‘lib, tuman veterinariya bo‘limining tarkibiy qismi xisoblanadi. Xo‘jalikda veterinariya xizmati veterinariya vrachi va veterinariya feldsheri tomonidan amalga oshirilib, xo‘jalik ishlarida faoliyat ko‘rsatadi.

Xo‘jalikda 1nafar veterinariya vrachi farlyat ko‘rsatadi. Bular quyidagilarni amalga oshiradilar:

- Xo‘jalik ma‘muriyati va boshqa mutaxassislari bilan xamkorlikda chorva mollarining sonini ko‘paytirish, mahsulot va xom-ashyo ishlab chiqarish miqdorini oshirish;

- Xo‘jalikda mavjud hayvonlarning doimiy ko‘rikdan o‘tkazish, rejalashtirilgan profilaktik va veterinariya sanitariya tadbirlarini amalga oshirish, kasal mallarni aniqlab ajratish va davolash;

- Xo‘jalikda O‘zbekiston Respublikasi «Veterinariya to‘g‘risida»gi qonunga amal qilish;

- Aholini zooantroponozlardan muxofaza qilish ishlari o‘z vaqtida bajarilib turiladi.

CHorvachilik ob‘ektlari devor bilan uralgan, kirish joylarida Veterinariya sanitariya o‘tkazish punktlari, dezobar‘er va dezomatlar o‘rnatilgan. SHuning uchun keyingi 4-5 yilda xo‘jalikda yuqumli kasallik qayd etilmagan.

Tumanda pullik veterinariya hisob-kitoblari ishi o‘z vaqtida olib boriladi. Xususiy veterinariya xizmatini tashkil etish shakllari va tartibi quyidagicha bo‘ladi:

- Zoovet punktlar
- Kichik korxonalar
- Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar
- Firmalar
- Veterinariya dorixonalari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2003 yil 3 noyabrdagi 479-sonli «Veterinariya faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida» gi qaroriga asosan xususiy veterinariya xizmatini tashkil etish uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi:

- Tuman yoki shahar hokimi nomiga ariza;
- Tashabbuskor guruhning majlisi bayonidan ko‘chirma;
- Guruh a‘zolarining ro‘yxati;
- Bo‘lajak muassasaning nizomi;
- Tuman (shahar) hokimining qarori va ro‘yxatga olish;
- Muhr va shtamp yasatish;
- Bankda hisob raqami ochish;
- O‘zRDVBB ning «LITSENIYA» sini olish;

- SHartnomalar tuzish va faoliyat ko'rsatish.
- II. **VETERINARIYA TO'G'RSIDA**
- III. (yangi tahriri)
- IV. **O'zbekiston Respublikasining Qonuni**
- V. **1-bob. Umumiy qoidalar**
- VI. **1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi**
- VII. Ushbu Qonunning maqsadi veterinariya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.
- VIII. **2-modda. Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari**
- IX. Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.
- X. **3-modda. Asosiy tushunchalar**
- XI. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:
- XII. **biologik chiqindilar** — hayvonlarning jasadlari, veterinariya-sanitariya jihatidan xavfli deb topilgan, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo, veterinariyaga oid biologik sanoat chiqindilari;
- XIII. **veterinariya** — hayvonlarning hayoti va sog'lig'i muhofaza qilinishini, hayvonlar kasalliklari paydo bo'lishining, tarqalishining oldini olishni va ularni tugatishni , aholini hayvonlar va odam uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan muhofaza qilishni, O'zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklari olib kirilishidan muhofaza qilishni ta'minlashga, hayvonlarga veterinariya xizmati ko'rsatilishini amalga oshirishga , shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududining veterinar osoyishtaligini, davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarning veterinariya , veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy va amaliy faoliyat sohasi;

- XIV. **veterinariya , veterinariya-sanitariya qoidalari va normalari** — veterinariya sohasidagi talablarni belgilovchi, davlat organlari va boshqa organlar, yuridik va jismoniy shaxslar rioya etishi shart bo‘lgan hujjatlar;
- XV. **veterinariya dori vositalari** — kelib chiqishi tabiiy va sintetik bo‘lgan dori moddalaridan (substansiyalardan) yoki dori moddalarining (substansiyalarning) aralashmasidan olingan, hayvonlar kasalliklari profilaktikasi, ularga tashxis qo‘yish va ularni davolash, shuningdek hayvonlar organizmining holati va funksiyalarini o‘zgartirish uchun mo‘ljallangan vositalar;
- XVI. **veterinar osoyishtalik** — hayvonlarning sog‘lig‘iga salbiy omillarning zararli ta’sirlari, epizootiya mavjud bo‘lmagan, shuningdek hayvonlarning yashashi uchun qulay shart-sharoitlar ta’minlanadigan holat;
- XVII. **davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlar** — hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo, veterinariya dori vositalari, mikroorganizmlar shtammlari, ozuqalar va ozuqabop qo‘shimchalar, veterinariya texnika vositalari, shuningdek bozorlarda realizatsiya qilinadigan o‘simlik oziq-ovqat mahsulotlari;
- XVIII. **kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot** — go’sht va go’sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, baliq va baliq mahsulotlari, tuxum va tuxum mahsulotlari, shuningdek asalarichilik mahsulotlari;
- XIX. **kelib chiqishi hayvonotga mansub xom ashyo** — hayvonlardan olinadigan, qayta ishlashga mo‘ljallangan mahsulotlar;
- XX. **nobop punkt** — hayvonlar yuqumli kasalliklarining o‘chog‘i aniqlangan hudud;
- XXI. **ozuqa** — hayvonlarni oziqlantirish uchun foydalaniladigan, kelib chiqishi o‘simlik va hayvonotga mansub mahsulotlar;

- XXII. **ozuqabop qo'shimchalar** — hayvonlar ratsionida yetishmaydigan ozuqaviy va mineral moddalar hamda vitaminlarning manbalari sifatida foydalaniladigan, kelib chiqishi organik, mineral va sintetik moddalar;
- XXIII. **cheklovchi tadbirlar (karantin)** — hayvonlar yuqumli kasalliklari o'choqlarining doirasi kengayib ketishiga yo'l qo'ymaslikka va ularni tugatishga, ular tarqalishining oldini olishga qaratilgan, xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatning alohida tartibini, aholi, transport vositalari, yuklar va (yoki) tovarlar harakati cheklanishini nazarda tutuvchi ma'muriy, epizootiyaga qarshi chora-tadbirlar hamda boshqa chora-tadbirlar;
- XXIV. **epizootiya** — tegishli hududda hayvonlarning o'ta xavfli va boshqa yuqumli kasalliklari tarqalishi;
- XXV. **epizootiyaga qarshi tadbirlar** — epizootiyaning oldini olishga, uni aniqlashga yoki tugatishga doir tashkiliy va maxsus veterinariya tadbirlari tizimi;
- XXVI. **hayvonlarning yuqumli kasalliklari** — paydo bo'lishiga hayvonlarga kasalliklarning qo'zg'atuvchilari ta'siri sabab bo'ladigan, tarqalishi hamda boshqa hayvonlarga va odamga o'tishi ehtimoli mavjud bo'lgan kasalliklar.
- XXVII. **2-bob. Veterinariya va veterinar osoyishtalikni ta'minlash sohasini davlat tomonidan tartibga solish**
- XXVIII. **4-modda. Veterinariya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari**
- XXIX. Veterinariya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:
- XXX. veterinariya sohasidagi tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- XXXI. davlat tomonidan veterinariya sohasidagi normalarni belgilash;
- XXXII. davlat veterinariya nazoratini amalga oshirish;
- XXXIII. veterinariya sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

XXXIV. 5-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining veterinariya sohasidagi vakolatlari

XXXV. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

XXXVI. veterinariya sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi;

XXXVII. veterinariya sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

XXXVIII. profilaktikasi, tashxis qo‘yilishi va tugatilishi O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan Hayvonlarning o‘ta xavfli yuqumli kasalliklari ro‘yxatini tasdiqlaydi;

XXXIX. hayvonlarning va odamning sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan va bunda hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo olib qo‘yiladigan hamda yo‘q qilib tashlanadigan Hayvonlarning kasalliklari ro‘yxatini tasdiqlaydi;

XL. davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining veterinariya sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

XLI. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

XLII. 6-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining veterinariya sohasidagi vakolatlari

XLIII. Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

XLIV. veterinariya sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

XLV. veterinariya sohasidagi hududiy dasturlarni tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

XLVI. tegishli hududda veterinar osoyishtalikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘radi;

XLVII. epizootiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazishda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining tegishli hududiy bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

XLVIII. Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

XLIX. 7-modda. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasining vakolatlari

L. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi (bundan buyon matnda Davlat veterinariya bosh boshqarmasi deb yuritiladi):

LI. veterinariya sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi hamda ular amalga oshirilishida ishtirok etadi;

LII. veterinariya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

LIII. veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

LIV. davlat veterinariya nazoratini amalga oshiradi;

LV. davlat veterinariya xizmatining hududiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

LVI. veterinariya sohasidagi faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi hamda tadbirlar va dasturlarni ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirib boradi;

LVII. tegishli davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan birgalikda epizootiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilishini ta'minlaydi;

LVIII. veterinariya faoliyatini litsenziyalashni amalga oshiradi;

LIX. davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarning O'zbekiston Respublikasiga olib kirilishi va O'zbekiston Respublikasidan olib

chiqilishiga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzitiga belgilangan tartibda ruxsatnoma beradi;

LX. mahalliy va import qilinadigan veterinariya dori vositalari hamda ozuqabop qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazishni va ularga ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomalarini berishni amalga oshiradi;

LXI. xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda ishtirok etadi, xalqaro veterinariya tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini ifodalaydi.

LXII. Davlat veterinariya bosh boshqarmasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

LXIII. 8-modda. Veterinariya tadbirlarini o'tkazishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning ishtirok etishi

LXIV. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari:

LXV. veterinariya sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

LXVI. tegishli hududda veterinariya sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

LXVII. tegishli hudud aholisini epizootiya va nobop punkt to'g'risida xabardor etadi.

LXVIII. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

LXIX. Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar veterinar osoyishtalikni ta'minlashda ishtirok etuvchi davlat organlariga va boshqa organlarga ko'maklashishi hamda zarur yordam ko'rsatishi mumkin.

LXX. 3-bob. Veterinariya tizimi va uni boshqarish

LXXI. 9-modda. Veterinariya xizmati tizimi

LXXII. Veterinariya xizmati tizimi davlat, idoraviy va ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlaridan iboratdir.

LXXIII. 10-modda. Davlat veterinariya xizmatini boshqarish

LXXIV. Davlat veterinariya xizmati Davlat veterinariya bosh boshqarmasidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat veterinariya boshqarmalaridan, davlat chegarasidagi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasidan, tumanlar va shaharlar davlat veterinariya bo‘limlaridan, ilmiy-tadqiqot institutlaridan, laboratoriyalardan, tashxis qo‘yish markazlaridan, veterinariya shifoxonalaridan, hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashish ekspeditsiyalaridan va otryadlaridan, veterinariya uchastkalaridan, bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalaridan va boshqa muassasalardan iboratdir.

LXXV. Davlat veterinariya bosh boshqarmasiga O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vaziri tomonidan tayinlanadigan boshliq rahbarlik qiladi.

LXXVI. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat veterinariya boshqarmalariga tegishicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bilan kelishilgan holda Davlat veterinariya bosh boshqarmasi boshlig‘i tomonidan tayinlanadigan boshliqlar rahbarlik qiladi.

LXXVII. Tumanlardagi, shaharlardagi davlat veterinariya xizmatini boshqarishni tumanlar va shaharlar davlat veterinariya bo‘limlari amalga oshiradi. Tumanlar va shaharlarning davlat veterinariya bo‘limlariga tumanlar va shaharlar hokimlari bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar davlat veterinariya boshqarmalari boshliqlari tomonidan tayinlanadigan boshliqlar rahbarlik qiladi.

LXXVIII. Respublika veterinariya laboratoriyalarining, ekspeditsiyalarining, otryadlarining, shuningdek davlat chegarasidagi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasining, davlat

chegara veterinariya punktlarining rahbarlari Davlat veterinariya bosh boshqarmasi boshlig'i tomonidan tayinlanadi.

LXXIX. Davlat veterinariya xizmati boshqa muassasalarining rahbarlarini tayinlash va lavozimidan ozod qilish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

LXXX. Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat veterinariya boshqarmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga va Davlat veterinariya bosh boshqarmasiga bo'ysunadi. Viloyatlar va Toshkent shahar davlat veterinariya boshqarmalari, tumanlar va shaharlar davlat veterinariya bo'limlari tegishli hokimlarga hamda yuqori turuvchi veterinariya organlariga bo'ysunadi.

LXXXI. Davlat veterinariya bosh boshqarmasi to'g'risidagi nizom va uning tashkiliy tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

LXXXII. 11-modda. Davlat veterinariya xizmatining vazifalari

LXXXIII. Davlat veterinariya xizmati:

LXXXIV. a) epizootik monitoringni amalga oshiradi;

LXXXV.b) hayvonlar kasalliklarining paydo bo'lishi va ularning nobud bo'lishi sabablarini tahlil qiladi, ushbu kasalliklar profilaktikasi hamda ularni davolash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

LXXXVI. v) quyidagi yo'nalishlar bo'yicha davlat veterinariya nazoratini amalga oshiradi:

LXXXVII. O'zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklarini qo'zg'atuvchilar olib kirilishidan muhofaza qilish, shuningdek hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo, veterinariya dori vositalari, ozuqalar va ozuqabop qo'shimchalarni tayyorlash, olib o'tish (tashish), eksport va import qilish;

LXXXVIII. hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq ishlab chiqarish;

- LXXXIX. g) hayvonlar yuqumli kasalliklarining oldini olish va ularni tugatishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- XC. d) sog‘liqni saqlash organlari va boshqa organlar bilan birgalikda hayvonlar va odam uchun xavfli bo‘lgan yuqumli kasalliklar o‘choqlarini tugatadi, shuningdek o‘zaro axborot almashishni amalga oshiradi;
- XCI. e) barcha chorvachilik ob’ektlarining, kushxonalarning, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni qayta ishlovchi korxonalarning, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni realizatsiya qiladigan va saqlaydigan savdo shoxobchalarining, omborlarning veterinariya-sanitariya holatini nazorat qiladi, bu ob’ektlarni qurish va rekonstruksiya qilishning, shuningdek yer qazish ishlarining veterinariya ekspertizasini amalga oshiradi;
- XCII. j) hayvonlar kasalliklariga tashxis qo‘yish, ozuqalarning, shuningdek chorvachilik ob’ektlarida ichimlik suvining sifatini baholash maqsadida laboratoriya tekshiruvlari hamda boshqa tekshiruvlar o‘tkazadi;
- XCIII. z) yuridik va jismoniy shaxslardan hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalishining oldini olishni hamda ularning tugatilishini ta’minlovchi chora-tadbirlar o‘tkazilishini, shuningdek epizootik vaziyatni aniqlash uchun zarur bo‘lgan axborot taqdim etilishini talab qiladi;
- XCIV. i) hayvonlarning va odamning sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan hayvonlarning kasalligi aniqlangan taqdirda, hayvonlarni so‘yishga yoki yo‘q qilib tashlashga, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni zararsizlantirishga (yuqumsizlantirishga), qayta ishlashga yoki utilizatsiya qilishga taluqli, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan talablarni belgilaydi;
- XCV. k) davlat va idoraviy veterinariya xizmatlari veterinariya mutaxassislarining faoliyatini nazorat qiladi hamda muvofiqlashtirib boradi, shuningdek belgilangan tartibda xususiy veterinariya faoliyatini

amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan litsenziya talablari va shartlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

XCVI. 1) veterinariya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga ko'maklashadi.

XCVII. 12-modda. Davlat veterinariya inspektorlari

XCVIII. Davlat veterinariya bosh boshqarmasining boshlig'i O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat veterinariya inspektori, uning o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektorining o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat veterinariya boshqarmalari boshliqlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinbosarlari esa tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat veterinariya inspektorlarining o'rinbosarlari hisoblanadilar.

XCIX. Davlat veterinariya bosh boshqarmasining veterinariya mutaxassislari o'z vakolatlari doirasida davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadilar.

C. Davlat chegarasidagi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasi boshlig'i davlat chegarasidagi va transportdagi bosh davlat veterinariya inspektori, uning o'rinbosarlari esa davlat chegarasidagi va transportdagi bosh davlat veterinariya inspektorining o'rinbosarlari hisoblanadilar.

CI. Tumanlar va shaharlar davlat veterinariya bo'limlarining boshliqlari tegishincha tumanlar va shaharlarning bosh davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadilar.

CII. Veterinariya uchastkalarining va bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalarining mudirlari tegishli uchastkalardagi va bozorlardagi davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadilar.

CIII. Chegaradagi va transportdagi veterinariya punktlarining (uchastkalarining) boshliqlari hamda veterinar vrachlari tegishincha

chegaradagi va transportdagi veterinariya punktlarining (uchastkalarining) davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadilar.

CIV. 13-modda. Davlat veterinariya inspektorlarining vakolatlari

CV. Bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o‘rinbosarlari va davlat veterinariya inspektorlari o‘z vakolatlari doirasida:

CVI. davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga zarur veterinariya, veterinariya-sanitariya tadbirlari va epizootiyaga qarshi tadbirlar o‘tkazish to‘g‘risida bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar beradi;

CVII. hayvonlarning va odamning sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan kasalliklarga chalingan hayvonlar aniqlangan hollarda, ushbu hayvonlarni so‘yish yoki yo‘q qilib tashlash to‘g‘risida, shuningdek iste‘molga yaroqsiz deb topilgan, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni yo‘q qilib tashlash, qayta ishlash yoki ushbu mahsulot va xom ashyodan o‘zgacha tarzda foydalanish haqida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar beradi;

CVIII. davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi ob‘ektlarga moneliqsiz kiradi va veterinariya to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to‘g‘risida bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar beradi;

CIX. temir yo‘l vagonlarining, kemalarning, samolyotlarning va boshqa transport vositalarining holati veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga nomuvofiqligi aniqlangan taqdirda ulardan foydalanishni taqiqlaydi;

CX. veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarining buzilishlari aniqlangan taqdirda chorvachilik ob‘ektlaridan, go‘sht va sut sanoati korxonalaridan, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va

xom ashyoni qayta ishlovchi hamda saqlovchi korxonalardan foydalanishni taqiqlaydi;

- CXI. veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarining buzilishlari aniqlangan taqdirda chorvachilik fermalarida, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni qayta ishlovchi hamda saqlovchi korxonalarda yangi qurilgan, tiklangan va rekonstruksiya qilingan ob'ektlarni ishga tushirishni to'xtatib turadi;
- CXII. hayvonlarning egalari tomonidan, shuningdek kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni qayta ishlash, saqlash hamda ularning savdosi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar tomonidan veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- CXIII. chegara oldi tumanlarda, qo'shni davlatlarda yuzaga kelgan epizootik vaziyat to'g'risida tegishli organlar va tashkilotlarni xabardor qiladi, tegishli veterinariya tadbirlarini amalga oshiradi hamda zarur tavsiyalar beradi;
- CXIV. veterinariya dori vositalari, ozuqabop qo'shimchalar ishlab chiqarilishini hamda ulardan chorvachilikda va veterinariyada foydalanilishini nazorat qiladi, ularning hayvonlar sog'lig'iga va kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot hamda xom ashyo sifatiga ta'sirini baholaydi;
- CXV. hayvonlarning yuqumli kasalliklari o'choqlari aniqlangan taqdirda tegishli hududlarni nobop punktlar deb e'lon qilish va ularda cheklovchi tadbirlar (karantin) joriy etish to'g'risida, shuningdek hayvonlarning yuqumli kasalliklari o'choqlari tugatilganidan keyin cheklovchi tadbirlarni (karantinni) bekor qilish haqida tegishli davlat organlariga taqdimnoma kiritadi;

- CXVI. veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga va boshqa shaxslarga nisbatan belgilangan tartibda ma'muriy jazo choralarini ko'radi.
- CXVII. Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga cheklash, to'xtatib turish va taqiqlash sud tartibida amalga oshiriladi.
- CXVIII. Bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinbosarlari va davlat veterinariya inspektorlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.
- CXIX. 14-modda. Idoraviy veterinariya xizmati**
- CXX. Idoraviy veterinariya xizmati veterinariya nazorati va veterinariya xizmati talab qilinadigan vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar tasarufidagi xizmatdir.
- CXXI. Idoraviy veterinariya xizmati o'z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi. Idoraviy veterinariya xizmati faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlash Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.
- CXXII. 15-modda. Idoraviy veterinariya xizmati veterinariya mutaxassislarining huquq va majburiyatlari**
- CXXIII. Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislari:
- CXXIV. idoraviy veterinariya nazorati ob'ektlariga moneliksiz kirish va veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;
- CXXV. idoraga qarashli muassasalar va tashkilotlardan veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish va ularni tugatishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar o'tkazilishini, shuningdek epizootik vaziyatni aniqlash uchun zarur bo'lgan axborot taqdim etilishini talab qilish;

CXXVI. veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor mansabdor shaxslarni hamda boshqa xodimlarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish haqida idoraga qarashli muassasalar va tashkilotlar rahbariyatiga ko'rib chiqish uchun taqdimnoma kiritish huquqiga ega.

CXXVII. Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislari:

CXXVIII. xizmat ko'rsatilayotgan korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda epizootiyaga qarshi tadbirlarni, davolash, veterinariya-sanitariya tadbirlarini o'tkazishi;

CXXIX. idoraviy veterinariya nazoratini hamda kelib chiqishi hayvonotga va o'simlikka mansub mahsulotning, xom ashyoning veterinariya-sanitariya ekspertizasi o'tkazilishini amalga oshirishi;

CXXX. hayvonlar o'ta xavfli yuqumli kasalliklarga chalinganligi xususida shubha mavjud bo'lgan taqdirda bu haqda davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishi va kasallik doirasi kengayib ketmasligi yuzasidan barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rish;

CXXXI. belgilangan tartibda veterinariyaga oid statistika hisobotini yuritish uchun davlat veterinariya xizmatiga axborot taqdim etishi shart.

CXXXII. Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va ularning zimmasida o'zga majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

CXXXIII. **16-modda. Ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlari**

CXXXIV. Faoliyati chorvachilikni tashkil etish va yuritish, hayvonlarni saqlash, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni, ozuqalarni, ozuqabop qo'shimchalarni hamda hayvonlarni davolash uchun mo'ljallangan veterinariya dori vositalarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan o'z mablag'lari hisobidan ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlari tashkil etilishi mumkin.

- CXXXV. Ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlarining veterinariya mutaxassislari:
- CXXXVI. korxonaning, muassasaning, tashkilotning rahbaridan veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish va ularni tugatishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar o'tkazilishini, shuningdek epizootik vaziyatni aniqlash uchun zarur bo'lgan axborot taqdim etilishini talab qilishi;
- CXXXVII. xizmat ko'rsatilayotgan korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda epizootiyaga qarshi tadbirlarni, davolash, veterinariya-sanitariya tadbirlarini o'tkazishi;
- CXXXVIII. hayvonlar o'ta xavfli yuqumli kasalliklarga chalinganligi xususida shubha mavjud bo'lgan taqdirda bu haqda davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishi va kasallik doirasi kengayib ketmasligi yuzasidan barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rishi;
- CXXXIX. epizootiya paydo bo'lgan taqdirda davlat veterinariya xizmatining ko'rsatmalariga binoan veterinariya tadbirlarini o'tkazishi shart.
- CXL. Ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlarining veterinariya mutaxassislari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.
- CXLI. **17-modda. Xususiy veterinariya faoliyati**
- CXLII. Yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshirishi mumkin.
- CXLIII. Xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar — tadbirkorlik sub'ektlari Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tomonidan beriladigan litsenziyaga ega bo'lishi shart.
- CXLIV. Xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari:

- CXLV. hayvonlarning kasalligini aniqlab tashxis qo'yish va ularni davolash bilan shug'ullanish, bundan hayvonlarning cheklovchi tadbirlar (karantin) yoki qonun hujjatlarida belgilangan boshqa cheklovlar qo'llanadigan kasalliklarga chalinishi hollari mustasno;
- CXLVI. hayvonlarni kasallanishdan saqlash maqsadida emlash tadbirlari o'tkazish, shuningdek hayvonlarning egalariga maslahat berish;
- CXLVII. veterinariya dori va texnika vositalarini, ozuqabop qo'shimchalarni ishlab chiqarish, tayyorlash va realizatsiya qilish bilan shug'ullanish huquqiga ega.
- CXLVIII. Xususiyl veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari:
- CXLIX. hayvonlarda yuqumli kasallik borligi xususida shubha mavjud bo'lgan taqdirda bu haqda davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishi va kasallik doirasi kengayib ketmasligi yuzasidan barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rishi;
- CL. epizootiya paydo bo'lgan taqdirda davlat veterinariya xizmatining ko'rsatmalariga binoan veterinariya tadbirlarini o'tkazishi shart.
- CLI. Xususiyl veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va ularning zimmasida o'zga majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.
- CLII. **4-bob. Hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot hamda xom ashyo egalarining huquq va majburiyatlari**
- CLIII. **18-modda. Hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo egalarining huquqlari**
- CLIV. Hayvonlarning, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoning egalari:
- CLV. veterinariya xizmati ko'rsatilishi to'g'risida tegishli veterinariya xizmatlari, shuningdek xususiyl veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari bilan shartnomalar tuzish;

- CLVI. hayvonlarning kasallikka chalinishi holati, epizootik vaziyat to'g'risida, shuningdek hayvonlarda, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoda o'tkazilgan maxsus tekshirishlar natijalari haqida veterinariya xizmatidan axborot olish;
- CLVII. hayvonlarni, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni, ozuqalarni, ozuqabop qo'shimchalarni, veterinariya dori va texnika vositalarini veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq olish hamda realizatsiya qilish, shu jumladan xorijda olish va realizatsiya qilish;
- CLVIII. davlat organlari va boshqa organlarning qonunga xilof qarorlari, ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki mansabdor shaxsga yoxud bevosita sudga shikoyat qilish huquqiga ega.
- CLIX. Hayvonlarning, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoning egalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.
- CLX. 19-modda. Hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo egalarining majburiyatlari**
- CLXI. Hayvonlarning, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoning egalari:
- CLXII. veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;
- CLXIII. davlat veterinariya xizmatining ko'rsatmalarini bajarishi;
- CLXIV. o'zlariga tegishli hayvonlar kasalliklarining oldini olishga qaratilgan tashkiliy-xo'jalik va veterinariya tadbirlarini o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirishi, bundan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan tadbirlar mustasno;
- CLXV. kasal hayvonni davolatishi, zarur bo'lgan hollarda, tegishli davlat veterinariya inspektorining ko'rsatmasiga ko'ra uning so'yilishini yoki yo'q qilib tashlanishini belgilangan tartibda ta'minlashi;

- CLXVI. hayvonlarning to'satdan nobud bo'lganligi yoki g'ayri odatiy xatti-harakati faktlari to'g'risida mazkur hududga xizmat ko'rsatuvchi davlat veterinariya xizmatini zudlik bilan xabardor qilishi;
- CLXVII. hayvonlarni yuqumli kasalliklardan muhofaza etish bo'yicha tegishli karantin tadbirlari va boshqa veterinariya tadbirlari o'tkazilishini, shuningdek to'liq hajmda davolash-profilaktika ishlovlari o'tkazilishini ta'minlashi;
- CLXVIII. chorvachilik binolarini hamda hayvonlarni, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni saqlash uchun mo'ljallangan boshqa inshootlarni veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq saqlashi;
- CLXIX. chorvachilik binolarida va boshqa ob'ektlarda dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiyani o'z vaqtida o'tkazishi;
- CLXX. hayvonlarni, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga rioya etgan holda realizatsiya qilishni amalga oshirishi;
- CLXXI. Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilmagan veterinariya dori vositalarini va ozuqabop qo'shimchalarni chorvachilikda qo'llamasligi;
- CLXXII. hayvonlarni so'yishga doir veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga rioya etishi shart.
- CLXXIII. Hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo egalarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.
- CLXXIV. **5-bob. Veterinar osoyishtalikni va davlat veterinariya nazoratini ta'minlash**
- CLXXV. **20-modda. Profilaktika, tashxis qo'yish va davolash tadbirlari**
- CLXXVI. Profilaktika tadbirlari hayvonlarning yuqumli kasalliklari paydo bo'lishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgandir.

- CLXXVII. Tashxis qo'yish tadbirlari hayvonlar kasalliklarini qo'zg'atuvchilarning manbalarini, ularning hayvonlarga va odamga o'tishi omillarini aniqlash, shuningdek profilaktika hamda davolash tadbirlari samaradorligini baholash maqsadida o'tkaziladi.
- CLXXVIII. Davolash tadbirlari hayvonlarning hayoti va sog'lig'ini saqlab qolishga, davolash-profilaktika ta'siriga ega bo'lgan veterinariya dori vositalari hamda ozuqabop qo'shimchalar qo'llanilishini nazarda tutadigan muolajalardan foydalangan holda hayvonlarning mahsuldorligini saqlash va oshirishga qaratilgandir.
- CLXXIX. **21-modda. Laboratoriya tekshiruvlari**
- CLXXX. Laboratoriya tekshiruvlari:
- CLXXXI. veterinariya va veterinariya-sanitariya ekspertizasi xulosalarini tayyorlash maqsadida;
- CLXXXII. davlat veterinariya nazoratini amalga oshirishda;
- CLXXXIII. hayvonning sog'lig'i holatini aniqlash, davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlar va biologik chiqindilarning veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari hamda normalarida belgilangan talablarga muvofiqligini baholash maqsadida;
- CLXXXIV. ilmiy-tadqiqot maqsadlarida o'tkaziladi.
- CLXXXV. Veterinariya sohasidagi laboratoriya tekshiruvlari belgilangan tartibda davlat veterinariya laboratoriyalari va boshqa veterinariya laboratoriyalari tomonidan o'tkaziladi.
- CLXXXVI. Veterinariya laboratoriya-tashxis qo'yish ishlari yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan litsenziya asosida amalga oshiriladi.
- CLXXXVII. **22-modda. Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni ishlab chiqarish va ularning muomalada bo'lishi chog'idagi veterinariya talablari**

CLXXXVIII. Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni ishlab chiqarish veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga mos keladigan ishlab chiqarish ob'ektlarida amalga oshirilishi kerak.

CLXXXIX. Bozorlarda, savdo tashkilotlarida va boshqa savdo ob'ektlarida kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni, shuningdek bozorlarda realizatsiya qilinadigan o'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilish, saqlash hamda realizatsiya qilish veterinariya-sanitariya ekspertizasi xulosasi asosida amalga oshiriladi.

CXC. O'zbekiston Respublikasi hududida muomalada bo'lgan veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo'shimchalar veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari hamda normalariga muvofiq bo'lishi kerak.

CXCI. Veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo'shimchalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, ularning veterinariya ekspertizasi va sinovi natijalariga ko'ra amalga oshiriladi.

CXCII. Veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo'shimchalarni ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, ulardan foydalanish hamda ularni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish faqat ular Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin amalga oshiriladi.

CXCIII. 23-modda. Biologik chiqindilarning muomalada bo'lishi va yo'q qilib tashlanishi chog'idagi veterinariya talablari

CXCIV. Biologik chiqindilar faqat ularning veterinariya jihatidan xavfsizligini tasdiqlovchi veterinariya-sanitariya ekspertizasi natijalariga ko'ra muomalaga qo'yiladi yoki yo'q qilib tashlanadi, bundan chorvachilik chiqindilari mustasno.

CXCV. 24-modda. O'zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklariolib kirilishidan muhofaza qilish

CXCVI. O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali olib o'tilayotgan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlar davlat veterinariya nazoratidan o'tkazilishi shart.

CXCVII. Epizootik jihatdan osoyishta bo'lgan boshqa davlatlardan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarning O'zbekiston Respublikasiga olib kirilishiga va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishiga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzitiga veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga rioya etilgan holda yo'l qo'yiladi.

CXCVIII. Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlar O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasida joylashgan chegara veterinariya punktlari (uchastkalari) orqali olib o'tiladi.

CXCIX. Boshqa davlatlar hududida hayvonlarning o'ta xavfli yuqumli kasalliklari, hayvonlarning kelib chiqish sabablari noma'lum bo'lgan yalpi kasalliklari va hayvonlarning ilgari qayd etilmagan yuqumli kasalliklari paydo bo'lgan taqdirda davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni olib o'tishga taqiq, cheklov joriy etish hamda ularni olib o'tishni tiklash to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektori tomonidan qabul qilinadi.

CC. Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni olib kirishdan oldin yuridik va jismoniy shaxslar eksport va tranzit qiluvchi mamlakatlardagi epizootik vaziyat to'g'risida davlat veterinariya xizmatidan bepul axborot olish huquqiga ega.

CCI. 25-modda. Davlat veterinariya nazorati ob'ektlari

CCII. Quyidagilar davlat veterinariya nazorati ob'ektlari jumlasiga kiradi:

CCIII. hayvonlar, ularning jinsiy va somatik hujayralari;

CCIV. hayvonlarning yuqumli kasalliklarini qo'zg'atuvchilar;

CCV. kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo, bozorlarda realizatsiya qilinadigan o'simlik oziq-ovqat mahsulotlari, veterinariya

dori va texnika vositalari, ozuqalar va ozuqabop qo‘zg‘atuvchilarning, patologik material, biologik chiqindilar, shuningdek suv, havo va tuproq namunalari;

CCVI. hayvonlarning yuqumli kasalliklarini qo‘zg‘atuvchilarni yuqtirish omillari bo‘lishi mumkin bo‘lgan transport vositalari, idishlar, joylash-o‘rash materiallari;

CCVII. yuridik va jismoniy shaxslarning veterinariya sohasidagi faoliyati;

CCVIII. davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni yetishtiradigan, tayyorlaydigan, ishlab chiqaradigan, saqlaydigan, qayta ishlaydigan, tashiydigan, realizatsiya qiladigan yoki ulardan foydalanadigan yuridik va jismoniy shaxslarning hududlari hamda ishlab chiqarish binolari;

CCIX. hayvonlar haydab o‘tiladigan yo‘llar, yo‘nalishlar, biotermik o‘ralar, hayvonot qabristonlari, hayvonlar boqiladigan yaylovlarning va sug‘oriladigan joylarning hududlari;

CCX. veterinariya hisobi va hisoboti bo‘yicha hujjatlar;

CCXI. veterinariya dalolatnomalari, litsenziyalari, ruxsatnomalari, ma‘lumotnomalari, guvohnomalari va sertifikatlari;

CCXII. davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni ishlab chiqarish, tayyorlash (so‘yish), saqlash va qayta ishlashga doir normativ-texnik hujjatlar.

CCXIII. **26-modda. Epizootik monitoring**

CCXIV. Epizootik monitoring hayvonlar yuqumli kasalliklarini qo‘zg‘atuvchilarni aniqlash bo‘yicha axborotni tizimli ravishda yig‘ish va ishlovdan o‘tkazishdir.

CCXV. Epizootik monitoring davlat veterinariya xizmati tomonidan quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

CCXVI. epizootik vaziyatni prognoz qilish, hayvonlarning yuqumli kasalliklari va ushbu kasalliklarni qo‘zg‘atuvchilar tarqalishini cheklash bo‘yicha tadbirlar majmuini ishlab chiqish;

CCXVII. cheklovchi tadbirlarni (karantinni) belgilash yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilish;

CCXVIII. faoliyati hayvonlarni saqlash, so'yish, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan korxonalardagi, muassasalardagi hamda tashkilotlardagi epizootik vaziyatni xo'jalik faoliyati xavfsiz amalga oshirilishi uchun aniqlash;

CCXIX. xalqaro savdo-sotiq va davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni tashish uchun mamlakatdagi epizootik vaziyatni aniqlash.

CCXX. 27-modda. Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni olib qo'yish, yo'q qilib tashlash, zararsizlantirish (yuqumsizlantirish) va qayta ishlash

CCXXI. Hayvonlarning va odamning sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo ularning xavflilik darajasiga qarab veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga ko'ra majburiy ravishda olib qo'yilishi hamda yo'q qilib tashlanishi yoxud olib qo'yilmagan holda majburiy ravishda zararsizlantirilishi (yuqumsizlantirilishi) va qayta ishlanishi shart.

CCXXII. Hayvonlarning va odamning sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan va bunda hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo olib qo'yiladigan hamda yo'q qilib tashlanadigan hayvonlarning kasalliklari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

CCXXIII. Hayvonlarning va odamning sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan va bunda hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot hamda xom ashyo, veterinariya dori vositalari, ozuqalar va ozuqabop qo'shimchalar olib qo'yilmagan holda zararsizlantiriladigan (yuqumsizlantiriladigan) hamda qayta ishlanadigan Hayvonlar kasalliklarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

CCXXIV. 28-modda. Hayvonlar yuqumli kasalliklarining o'choqlari aniqlangan chog'dagi cheklovchi tadbirlar (karantin)

CCXXV. Hayvonlar yuqumli kasalliklarining o'choqlari aniqlangan hollarda Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlarning, tumanlarning, shaharlarning, shaharchalarning, qishloqlarning, ovullarning muayyan hududlarini nobop punktlar deb e'lon qilish va ularda cheklovchi tadbirlar (karantin) joriy etish tegishli bosh davlat veterinariya inspektorlarining taqdimnomasiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining qarorlari bilan yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektorining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi.

CCXXVI. Belgilangan muddatlar o'tganidan va hayvonlarning yuqumli kasalliklari o'choqlari tugatilganidan keyin, shuningdek zarur veterinariya tadbirlari o'tkazilganidan so'ng Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlarning, tumanlarning, shaharlarning, shaharchalarning, qishloqlarning, ovullarning muayyan hududlaridagi cheklovchi tadbirlar (karantin) tegishli bosh davlat veterinariya inspektorlarining taqdimnomasiga ko'ra cheklovchi tadbirlarni (karantinni) belgilagan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining qarorlari bilan yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektorining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan bekor qilinadi.

CCXXVII. 6-bob. Yakunlovchi qoidalar

CCXXVIII. 29-modda. Davlat veterinariya xizmatining ta'minoti va moliyalashtirilishi

CCXXIX. Davlat veterinariya xizmati O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetining mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ta‘minlanadi.

CCXXX.30-modda. Davlat veterinariya nazoratini amalga oshirish bo‘yicha faoliyatga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi

CCXXXI. Davlat veterinariya nazorati organlarining faoliyatiga aralashish, davlat veterinariya nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilish maqsadida ularga har qanday shaklda ta‘sir o‘tkazish taqiqlanadi.

CCXXXII. **31-modda. Nizolarni hal etish**

CCXXXIII. Veterinariya sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

CCXXXIV. **32-modda. Veterinariya to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

CCXXXV. Veterinariya to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

CCXXXVI. “VETERINARIYA TO‘G‘RISIDA”GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O‘ZGARTISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

CCXXXVII. **O‘zbekiston Respublikasining Qonuni**

CCXXXVIII. *Qonunchilik palatasi tomonidan 2015-yil 5-oktabrda qabul qilingan*

Senat tomonidan 2015-yil 4-dekabrda ma‘qullangan

CCXXXIX. **1-modda.** O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan “Veterinariya to‘g‘risida”gi 935–XII-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, №9, 335-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, №6, 118-modda; 1997-yil, №4–5, 126-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi,

2009-yil, №12, 472-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda) o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (ilova qilinadi).

CCXL. **2-modda.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

CCXLI. hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

CCXLII. davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

CCXLIII. **3-modda.** Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

CCXLIV. **O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV**

CCXLV. Toshkent shahri,
2015-yil 29-dekabr
№O'RQ—397

-

5. HAYOT FAOLIYAT HAVFSIZLIGI

Havfsiz ishlash uchun mashina va mexanizmlarni tuzilishi, ishlash prinsiplarini yaxshi o'rgangan bo'lish kerak. Qishloq xo'jaligida jarohatlarning 35%ga yaqini transportda ish bajarganda sodir bo'ladi. Elektr toki bilan jarohatlanish jami jarohatlarning 0,5-1% ini tashkil qiladi. Xo'jalikda ishlaydigan har bir xodim bajaradigan vazifasidan qat'iy nazar mehnat muxofazasi qoidalariga rioya qilish shart. Xo'jalik raxbari tomonidan ishchilarga instruktaj beriladi, chunki xo'jalikdagi ishchi xodimlar texnika, elektr toki va xayvonlar bilan ishlaydilar.

Hayot faoliyat havfsizligi ish joylarida inson salomatligi va ish qobiliyatini ta'minlovchi barcha shart sharoitlarni yaratib berishdan iborat. Bu sharoitlar mehnat qonunlari kodeksi tomonidan kafolatlanadi.

Hayot faoliyat havfsizligining vazifalaridan biri ishlab chiqarishdagi mehnat qiluvchilarni, mehnat havfsizligini ta'minlashdan iborat. Xozirgi kunda

jamiyatimizda fan texnika rivoji zamonaviy yutuqlari natijasida qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan zamonaviy texnikalar paydo bo‘la boshladi. Bu texnikalarni boshqarishda havfsizlik koidalariga qat’iy rioya qilish lozim.

«Jo‘ra» fermer xo‘jaligida yong‘inga qarshi barcha otar va molxonalar, oziqa bazasi tarafida basseynida suv va qum saqlanadi. Xo‘jalikda yong‘inga qarshi havfsizlik choralari bor mineral ug‘itlar, zaharli ximikatlar, veterinariya preparatlari alohida joylarda qulflanib saqlanadi.

Qoramolchilik fermasi devor bilan o‘ralgan bo‘lib, fermaga kirishda shilagbaumlar, dezobar’er tusiqlar o‘rnatilgan, molboqar va boshqa xizmatchilar maxsus kiyim-kechaklar (xalat, rezina etik) va issiq kiyimlar bilan tuliq ta‘minlangan. Xo‘jalikda barcha ishlatiladigan elektr jihozlari himoya shitlari bilan o‘ralgan bo‘lib, insonlar xayoti uchun havfsiz. Veterinariya xodimlari ham xayvonlar bilan ishlaganda, texnika havfsizligi qoidalariga rioya qilib, maxsus fiksatsiya qilish asboblariidan foydalanilgan holda veterinariya tadbirlarini o‘tkazadi.

6. FUQAROLAR MUDOFASI

O‘zbekiston Respublikasi mehnatni muhofaza qilish konunining 17 moddasiga asosan sog‘likni saqlash tashkiliy idoralari tomonidan belgilangan tartibga muvofiq mehnat shartnomalarini imzolashda vaqti-vaqti bilan tibbiy ko‘rikdan o‘tish tashkil etiladi, bundan tashqari ish tarkibida bir qancha himoya vositalari, kiyim-kechaklaridan foydalaniladi.

Zaharli preparatlar bilan ishlaganda himoya ko‘zoynagi, resprator, qo‘lga rezina qulqoplar kiyiladi. SHu qatorda zaharli preparatlar bilan ishlagandan so‘ng, shu qolgan preparatlarni chuqurga kumib, zararsizlantirib, ish joylari tozalab qo‘yiladi.

Ishlab chiqarish sharoitlarida mutaxassislar va molboqarlar nurlanish kasalligi to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lishlari lozim. Nurlanish kasalligi deb radioaktiv izotop ta‘siri natijasida paydo bo‘ladigan kasallikka aytiladi.

1. Nurlanish kasalligi - tashqi va ichki nurlanishning maydoniga qarab, umumiy va mahalliy bo'ladi. Kechishiga qarab - o'tkir va surunkali kechadi.

A) 1000 rentgen miqdorida nurlanish natijasida kasallik bir necha soatdan 2 sutkagacha davom etadi. Klinik belgilarini aniqlash, tekshirish imkoniyati bo'lmasligi ham mumkin. Chunki ba'zida hayvonlar nurlanish vaqtida halok bo'ladi.

Nurlanish kasalligida asosiy belgilar qo'zg'alish holati, tana haroratining ko'tarilishi, ensefalit va ensefalomielit kasalligiga o'xshash belgilar paydo bo'lishi, keyinchalik, umumiy holsizlanish, falaj, yarim falaj yuz beradi. Nafas va yurak urishi soni keskin tezlashadi. Qon bosimi oshadi, keyinchalik qon tomirlar torayadi va shu sababli qon quyulishlar paydo bo'ladi. Arteriya qon bosimi keskin pasayadi va vena qon bosimi bilan tenglashadi. Kasallikning bu tarzda kechishida hayvonlar 100% halok bo'ladi. Shu sababli hayvonlar imkoniyati boricha tezroq go'shtga so'yilishi shart.

Nurlanish kasalligida davolashning samarali usuli ishlab chiqarilmagan. Shuning uchun davolash simptomatik usulda o'tkaziladi. Davolashdan oldin hayvonning nurlanish darajasi aniqlanadi, 3- va 4- daraja va undan yuqori nurlanishda davolanmaydi va uch kun o'tmasdan majburiy so'yiladi. 1-2 darajali nurlanishlar davolanadi.

Ichki nurlanish natijasida kasallik rivojlanishi hisobga olinadi. Vaqt ko'p o'tmagan bo'lsa (90 minut atrofida) oshqozon yuviladi (ot va qoramollarda), it va cho'chqalarda qusish reflekti chaqiriladi. Tashqi nurlanishda veterinariya abrotbotkasi - zararsizlantirish va yaralar davolanadi.

Radiaktiv izotoplarni ta'sirini pasaytirish uchun surgi dorilar qo'llaniladi. Qoramollarga kalsiy, kaliy tuzlari, alkaloidlar, cho'chqalarda karamel q'llaniladi.

Radiaktiv izotoplarni qonda ajratish uchun, diuretiklar - siydik haydovchi vositalar qo'llaniladi (diuriten, merkuzal, diakarb v.h.k).

Radiaktiv izotoplarni antogonistlari qo'llaniladi: radiaktiv yoda-oddiy yod, kayod. Stronsiyga qarshi kalsiy. Seziyga qarshi K Na q'llaniladi

7. XULOSALAR

1. . Sigirning endometritlar bilan kasallanishida molxonalarda sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilinmasligi, sigirlarni o'z vaqtida tug'ruqxonalarga o'tkazilmasligi, tug'ishda etarlicha yordam ko'rsatilmassligi, ularni yo'ldoshni ushlanib qolishi, tug'ishdan keyingi infeksiyalar bilan kasallanishi, ratsionlarni takomillashmaganligi, sigirlar organizmining to'yimli moddalar, makro- va mikroelementlarga nisbatan ehtiyojlarini to'liq qondirmasligi asosiy etiologik omillar hisoblanadi.

2. Sigirlarda kataral-yiringli endometritlar tana haroratini o'rtacha $0,5-1^{\circ}\text{S}$, yurak urishi sonini bir daqiqada 10-15 martagacha ortishi, umumiy holsizlanish, ishtahaning o'zgarishi, oshqozon oldi bo'limlari qisqarishlarining kamayishi gipotoniyasi, shilliq pardalarning oqarishi (anemiya), qindan kataral-yiringli ekssudat oqishi, hayvonda bezovtalanish va vaqti-vaqti bilan kuchanish kabi belgilar kuzatilishi bilan xarakterlanadi.

3. Sigirlarda bachadon yallig'lanishlari qondagi eritrositlar soni, gemoglobin miqdorlarini kamayishi, lekositlar sonini ortishi, lekoformulada limfositlar, eozinofillar foizining ortishi va tayoqchayadroli, segmentyadroli neytrofillar va yosh neytrofillar foizining kamayishi hisobiga yadroni chapga siljishi bilan kechadi.

4. Sigirlarda bachadon kasalliklarini davolashda qin va bachadonni tuzli-sodali eritma (10 g osh tuzi, 20 g natriy gidrokarbonat, 1 l qaynatilgan suv) bilan kuniga bir marta, jami 3 marta yuvish, yodopen suppozitoriysidan 1 dona bachadoga tashlandi. Butasal-100 preparatini qo'shib qo'langanda davolash samaradorligi yuo'ori bo'lib, sigirlarni to'liq sog'ayishi va urug'lanish ko'rsatkichi yuqori bo'lishini ta'minlaydi va davolash nazorat guruhiga nisbatan ikki kunga qisqarganligi aniqlandi.

8. AMALIY TAVSIYALAR

1. Sigirlarda bachadon yallig‘lanishlarini (metritlar) ertachi aniqlash uchun hayvonlarni parvarishlash va oziqlantirish sharoitlarini tahlil qilish, klinik, gematologik va ginekologik tekshirishlar o‘tkazish, hayvonlarda yiliga kamida ikki marta (kuz va bahor oylarida) dispanser tekshirishlar o‘tkazish va bunda hayvonlarni saqlash sharoitlari va oziqlantirilishi, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, semizlik darajasi, modda almashinuvi buzilishi kasalliklari, yo‘ldoshning ushlanib qolishi kabi kasalliklarning uchrashi, hayvonlarning 10-15 foizida klinik tekshirishlar o‘tkazish bilan shilliq pardalarning anemiyasi, ishtahaning o‘zgarishi, ariqlash, jinsiy yo‘llardan ekssudat ajralishi va uning xarakterini aniqlash.

2. Sigirlarda bachadon yalig‘lanishining davolashda tuzli-sodali eritma (10 g osh tuzi, 20 g natriy gidrokarbonat, 1 l qaynatilgan suv) bilan kuniga bir marta, jami 3 marta yuvish, yodopen suppozitoriysidan 1 dona bachadoga tashlandi.an’anaviy usullarga qo‘shimcha: Butasal-100 preparatidan 1 bosh sigirga 15ml xisobida xar kuni bir marta vena qon tomiriga yuborildi, sog‘ayish va urug‘lanish samaradorligi 100% tashkil etdi.

9. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov “Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbayi” // Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2 – T., 1996 – 162 b.
2. I.A.Karimov “Qishloqda islohatlarni chuqurlashtirish – ustuvor vazifa” // YAngicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. – T., 1997 – 323–324 b.
3. I.A.Karimov. Qishloq istiqboli – yurt istiqboli // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T., 1996
4. I.A.Karimov. Qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti tukin hayot manbai. Toshkent 1997 yil.

5. I.A.Karimov «Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy isloqatlarni chuqurlashtirish dasturi» 1998-2000 y.
6. I.A.Karimov: Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz» Toshkent, 2000 y.
7. I.A.Karimov. SHaxsiy yordamchi dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risidagi PQ - 842 qarori, 2009 yil, 21 aprel - Xalq so‘zi gazetasi.
8. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» Toshkent, 2010.
9. Abduraxmonov T., R.B.Davlatov «Veterinariya ishini tashkil etish va uning iqtisodi» Samarqand 2004.
10. Ata-Kurbanov SH.B., B.M.Eshburiev, Veterinariya akusherligi fanidan Amaliy-laborator mashg‘ulotlar. «N.Doba» XT. Samarqand, 2010.
11. Ata-Kurbanov SH.B., B.M.Eshburiev, Sigirlar va urug‘lantirish yoshidagi tanalarni sun’iy urug‘lantirish bo‘yicha tavsiyalar. Zooveterinariya jurnali. 2010, №5.B.23-25.
12. Voskoboynik V.F., Kozlov G.P. Эффективный метод лечения коров с послеродовым эндометритом //Veterinariya. 1991. - № 5. - S.45 - 46.
13. Gavrish V.G. Новые препараты в ветеринарной гинекологии //Актуальные проблемы ветеринарии / Материалы международной конференции. Barnaul, 1995. - S. 187.
14. Gavrish V.G., Rodin V.P., Semyonov S.V. Gisterofur dlya lecheniya pri endometrite korov //Veterinariya. 1996. - № 5. - S.40 - 43.
15. Gavrish V.G., Egunova A.V., Semyonov S.V., Jemerichkin D.A. Lechebno-profilakticheskaya effektivnost yodopena pri endometrite // Veterinariya. 2000.-№ 5. - S.35.

16. Kondrakin I.P., Levchenko V.I. Diagnostika i terapiya vnutrennix bolezneyivotnix. M.: Izd.OOO «Akvarium-Print», 2005.S.-652-664.
17. Sokolova O.V. Osenka bioresursnogo potentsiala visokoproduktivnix korov pri raznix texnologiyax sodержaniya. Avtoref.diss... kand. biol. nauk. – 2007. S 19-20.
18. Koba I.S. Uovershenstvovanie kompleksnoy farmakoterapii pri ostrom poslerodovom endometrite bakterialno-mikoznoy etiologii. Avtoref. diss...dokt.vet. nauk. 2010. S-28-33.
19. Koba I.S. Profilaktika i terapiya endometritov u korov / I.S. Koba, A.N. Turchenko //Inform listok 2003.
20. CHomaev A.M., CHyrnisheva M.N., Goldina A.A. Molochnaya produktivnost i sroki osemeneniya korov. J.Zootexniya, №6, 2003, s.30.
21. Markelov. O.V. Lechebno-profilakticheskaya effektivnost ginekologicheskix suppozitoriev "Metrasul" pri poslerodovom endometrite korov. Avtoref. Dis. Kand veet nauk. Ulyanovsk 2003.
18. Teterev I. I., Timoshenko T. A., Mededev S. P., Badin V.A. Primeneie preparatov propolisa v jivotnovodstve i veterinarii// S-x nauka Severo-Vostoka Eropeskoy chasti Rossii: Sb. nauchn. tr. NIISX Severo-Vostoka im. N.V.Rudniskogo.- Kirov,1995.- T.3.S.41-47.
19. Teterev I. I., Badin V. A. Preparat [Biogel-10](#) dlya lecheniya korov, bolnix mastitami i endometritami // Reshenie VNIIGPE o vidache patenta na izobretenie 28.3.97. - M., 1997.
20. Limarenko A.A. Uovershenstvovanie etiotropnoy terapii pri poslerodovom endometrite u korov. Stavropol, 1999.
21. Subbotin V.M., S.G.Subbotina, I.D.Aleksandrov. Sovremennie lekarstvennie sredstva v veterinarii. feniks Rostov-na-donu 2000.
22. Pod red. V.S.SHipilova Veterinarnoe akusherstvo i ginekologiya. Agropromizdat. Moskva 1986

23. Norboev Q.N., B.Bakirov, B.Eshbo'riev Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklaridan praktikum. Samarqand 2007.
24. Norboev Q.N. va b. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik, Toshkent, 2007.
25. Eshbo'riev B.M. Hayvonlarning endemik mikroelementozlari. Monografiya. «N.Doba» XT. Samarqand, 2010 [www. Ziyonet](http://www.Ziyonet).
26. Pankov B.G. Profilaktika, farmakoprofilaktika, rannaya diagnostika i lechenie klinicheskix i skritix endometritov u korov: Dis. ... d-ra vet. nauk : 16.00.07, 16.00.02 Moskva, 2003 317 s. RGB OD, 71:04-16/19.
27. R.N.Safiullov. Lechebno-profilakticheskaya effektivnost preparata "Ekstrakt plasenty s leщinoy" pri kataralno-gnoynom endometrite korov. avtoreff. diss...kand. vet.nauk. Kazan. 2009. S. 2-5.
28. Studensov A.P., SHipilov V.S., Nikitin V.YA. i dr. Veterinarnoe akusherstvo, ginekologiya i biotexnika razmnojeniya. Moskva, Kolos, 2000.
29. SION-Isroil kompaniyasi menejeri Dani Glad tomonidan taqdim etilgan prezentasiya materiallari. Payariq tumani q/x kasb hunar kolleji. 03.2011.
30. SHipilov V.S., Zvereva G.V., Rodin I.I., Nikitin V.YA. Praktikum po akusherstvu, ginekologii i iskusstvennomu osemeneniyu selskoxozyaystvennix jivotnix. M.: VO «Agropromizdat», 1998.
31. Zavertaev B.P. Biotexnologiya v vosproizvodstve i seleksiya krupnogo rogatogo skota. L. Agropromizdat. Leningradskoe otdelenie. 1989.
32. Uchebnik pod redaksiey V.YA. Nikitina i professora M.G. Mirolubova. Veterinarnoe akusherstvo, ginekologiya i biotexnika razmnojeniya. Moskva "Kolos" 1999.
33. [Www.google.ru](http://www.google.ru) Varganov A.I., CHuprakov V.G., Sozinov V.A. «Lekarstennie sredstva v veterinarnoy akushersko-ginekologicheskoy praktike». Kirov, 2003.

34. Pankov Boris Grigorevich. Profilaktika, farmakoprofilaktika, rannyya diagnostika i lechenie klinicheskix i skritix endometritov u korov: Dis. ... d-ra vet. nauk : 16.00.07, 16.00.02 Moskva, 2003.
35. «Journal of veterinary pharmacology and therapeutics» (Okker H., Schmitt e., Scherpenisse P., Bergwerff A., Jonker F., 2002).
36. Zooveterinariya e-mail.ru
37. <http://veterinar.selhozizdat.ru/avet/>
38. <http://vak.ed.gov.ru/common/img/uploaded/files/vak/announcements/Veterinar/2010/1506/Koba> I.S.
39. <http://bd.patent.su/2372000-2372999/pat/servlet/servlet5ae1.html>
40. (<http://webmvc.com/bolezni/livestock/tocology/retentio.php>)
41. <http://skotovodstvo.blogspot.com/2010/01/1.html>
42. <http://webmvc.com/bolezni/livestock/tocology/retentio.php>